

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS

TA'LIM VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'l yozma huquqida

UDK: 152.823.8

ABDURAXMONOVA ROBIYA

YoShLAR IJTIMOIIY FAOLIGINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.

5A 110902 - "PSIXOLOGIYA"

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

dissertatsiya

Andijon 2014

**MAVZU: YoShLAR IJTIMOIIY FAOLIGINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.
REJA.**

KIRISH.

1.bob.Ijtimoiy faollik –ijtimoiy psixologik xodisa sifatida.

1.1 Ijtimoiy faollikning psixologik tafsifi.

1.2 Jaxon psixologlari tomonidan muammoning hrganilishi.

1.3 Yoshlarni yangicha ijtimoiy munosabatlarga urgatishning ayrim jixatlari.

Bob bo'yicha xulosa

2.BOB.Yoshlar psixologiyasi.

2.1Yoshlarning psixologik xususiyatlari.

2.2.Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda irodaviy xususiyatlarning urni .

2.3 Talabalarda odob –ahloq xususiyatlarini shakllantirishning psixologik jihatlar

2.4. Barkamol shaxs psixik holatlari va ularni tushuntirish vositalari

Bob bo'yicha xulosa

3.BOB. Ijtimoiy faollikning shakllantirishni amaliy asoslari.

3.1 O'yin metodlari va ularning ijtimoiy faollikni oshirishdagi roli.

3.2 Tadqiqot o'tkazish va natijalarni psixologik taxlili.

Bob bo'yicha xulosa

Umumiy xulosa.

Taklif va tavsiyalar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

Ilovalar.

M U N D A R I J A

	KIRISH.	
I BOB	Ijtimoiy faollik –ijtimoiy psixologik xodisa sifatida.	
1.1	Ijtimoiy faollikning psixologik tafsifi.	
1.2	Jaxon psixologlari tomonidan muammoning hrganilishi.	
1.3.	Yoshlarni yangicha ijtimoiy munosabatlarga urgatishning ayrim jixatlari.	
	Bob bo'yicha xulosa	
II BOB	Yoshlar psixologiyasi.	
2.1.	Yoshlarning psixologik xususiyatlari.	
2.2	Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda irodaviy xususiyatlarning urni .	
2.3	Talabalarda odob –ahloq xususiyatlarini shakllantirishning psixologik jihatlari	
2.4	Barkamol shaxs psixik holatlari va ularni tushuntirish vositalari	
	Bob bo'yicha xulosa	
3-BOB.	Ijtimoiy faollikning shakllantirishni amaliy asoslari.	
3.1.	O'yin metodlari va ularning ijtimoiy faollikni oshirishdagi roli.	
3.2	Tadqiqot o'tkazish va natijalarni psixologik taxlili.	
	XULOSA.	
	TAVSIYa.	
	FOYDALANILGAN ADABIYoTLAR	

Kirish.

“Bugun xalqaro hayot, kishilik taraqqiyot shunday bosqichga kirganki, endi unda harbiy qudrat emas, balki intellektual salohiyat, aql-idrok, fikr ilg’or texnologiyalar ham xalq qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Amir Temur bobomizning “Kuch adolatda” degan mashxur ta’birini bugungi kunga nisbatan qo’llab aytadigan bo’lsak, men unga qo’shimcha qilib “Kuch bilim va tafakkurda” degan bo’lar edim.”⁽¹⁾ I.A.Karimov “Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyoti poydevori” asari)

I.Karimov

Insonni dunyoga kelishi, faqat tug’ilishdan iborat tabiiy-biologik hodisa emas, balki tug’ilgandan keyin o’z zamonasining taraqqiyoti darajasiga ko’tarilishi, mavjud ijtimoiy-tarixiy tajribani egallashi, jamiyatda o’z o’rnini belgilab olishi, tarixiy jarayonning faol ishtirokchisiga aylanishi, o’z e’tiqodiga, o’zligiga, hayotda o’z o’rniga, mavqeiga ega bo’lishi va buning uchun faol ta’lim tarbiya olishi kerak bo’ladi. Bu jarayonda katta avlod o’zining yashash, kurash va mehnat tajribasini, bilim va malakalarini kichik avlodga beradi. Bu esa tarbiya

deb ataladigan insonning shakllanishida, rivojlanishida muhim o’rin tutadigan ijtimoiy hodisa orqali amalga oshiriladi. Jamiyat rivojlangan sari barkamol, etuk shaxslarni etishtirish ham ortib hamda o’zgarib boradi. Shu kabi hayotiy ehtiyojlar zahirida inson faolligi paydo bo’ldi. Prezidentimiz I.A.Karimov Uzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillarini bayon qilar ekan madaniy-ma’rifiy sohadagi ishlarga mustaqil respublikamizda ma’naviyatini rivojlantirish masalalariga ham alohida to’xtalib, quyidagilarni ta’kidlaydi: “Endigi asosiy vazifa kishilarimizni mustaqil fikrlashga o’rganishi, o’ziga ishonchining ortib borishidir. Chunki tafakko’r ozod bo’lmasa, ong va shuko’r tarzidan qullikdan qutulmasa, inson to’la ozod bo’lmaydi”. Jamiyat bilan doimiy munosabatni ushlab turuvchi, o’z-o’zini anglab, har bir harakatini muvofiqlashtiruvchi shaxsга xos bo’lgan eng muhim va umumiy xususiyat - bu uning faolligidir.

Mavzuning dolzarbligi. Milliy istiqlool sharofati tufayli barkamol avlod ta’lim-tarbiyasiga e’tibor kuchaydi. Barkamol avlod ta’lim - tarbiyasining muhim tarkibiy qismlaridan biri-har qanday jamiyatning zamonaviy taraqqiyot darajasi hamda uning kelajagini belgilovchi o’z ichki imkoniyatlari, ijodiy tashabbuskorlik salohiyati ila o’zligini namoyon qila bilgan, jamiyat tomonidan qabo’l qilinishi va tan olinishida o’z-o’zini isbotlay olgan, o’z taqdirining haqiqiy sub’ekti bo’la olgan, izlanuvchanlik hamda yaratuvchanlik qobiliyatiga ega insonlarni kamol toptirishdir. Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan 2010 yilning “Barkamol avlod yili” deb e’lon qilinishi ham hukumatimiz tomonidan yoshlar tarbiyasiga, ularni komil inson bo’lib yetishishlariga bo’lgan e’tiborning bir ko’rinishidir. Ma’lumki, har qanday jamiyat o’z a’zolariga nisbatan insonparvarlik munosabatlarida bo’lishga intiladi va uning maqsadi insonning o’zini-o’zi namoyon qilishga, o’zini-o’zi tasdiqlashga, o’zining shaxs sifatida jamiyat tomonidan tan olinishi ehtiyojini

amalga oshirish imkoniyatlariga yo‘l ochib berishdir. Bugungi kunda butun dunyoda yuz berayotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar o‘qitish va tarbiyalash nazariyasi hamda amaliyotida juda ko‘p o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Yangi ijtimoiy sharoitlarda mavjud pedagogik amaliyot metodologik va amaliy muammolarni nazariy jihatdan chuqur anglamasdan turib amalga oshirila olinmaydi, chunki mazko‘r muammolarni hal qilmasdan turib, ta‘lim va tarbiyada samaraga erishib bo‘lmaydi.

Demak, jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy, demografik, ekologik, ijtimoiy va inson intellekti borasidagi buhronlar, tub o‘zgarishlar zamonaviy psixologiya fanlariga talab hamda ehtiyojning ortishiga sababchi bo‘lmoqda.

Ilmiy muammo shundaki keyingi yillarda kasb xunar kolleji yoshlarining kasbiy qiziqishlari asosida kasbga yo‘llash ishlari to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmayotganligi, yoshlarning kasbiy bilimlarining sayozligi natijasida malakali mutaxassis tayyorlashda bir muncha kamchiliklar sezilmoqda. Bu xolat ayni kasb xunar kollejidagi kasbga yo‘naltirish ishlarining talab darajasida emasligini anglatadi. Natijada yoshlarning o‘zi xohlamagan yo‘nalishlar asosida mutaxassisliklarga biriktirish, ularning kasbiy qiziqishlarini e‘tiborga olmaslik, kabi bir qator xolatlar kuzatilmoqda.

Shaxs tarbiyasi, uning ijtimoiy-psixologik kamoloti har qanday davlatning bosh strategik masalalaridan biridir. Chunki, shaxsni ma‘lum ezgu g‘oyalar, intellektual talablar asosida tarbiyalamay turib har jihatdan kamol topishga qodir jamiyatni qurib bo‘lmaydi. Zero, bu jarayonda eng avvalo ta‘lim-tarbiya tizimi, uning mazmun-mohiyati, ayni-paytda ta‘lim tizimini takomillashtirishga xizmat qiluvchi psixologik tamoyillar muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, barkamol avlod tarbiyasi va uning mukammal ta‘lim olishi masalalari davlat siyosati maqomi darajasida hal qilinayotganligi bugungi yoshlarimizning hech kimdan kam bo‘lmagan porloq kelajagiga jiddiy e‘tibor qaratilayotganligidan dalolatdir. Buni prezident I.A.Karimovning quyidagi fikrlaridan ham yaqqol anglash mumkin: “Ta‘lim-tarbiya-ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir”. Binobarin, ta‘lim-tarbiya tizimini o‘zgartirmasdan turib ongni o‘zgartirib bo‘lmaydi. Ongni, tafakkurni o‘zgartirmasdan turib esa biz ko‘zlagan oliy maqsad ozod va obod jamiyatni barpo etib bo‘lmaydi.” Aytish joizki, bugungi kunda Respublikamizning barcha ta‘lim muassasalarida o‘quvchi shaxsiga uning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bilan bog‘liq kelajagiga alohida e‘tibor qaratilayotgan ekan, bu jarayonda har bir o‘quvchidagi o‘quv faolligini namoyon etuvchi ichki munosabatlarning qay darajada tarkib topayotganligini o‘rganish, tahlil qilish va shular asosida tegishli ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, o‘quvchi shaxsidagi ta‘lim olish jarayoniga munosabatining shakllanishi avvalo uning individualligi, betakrorligini hurmat qilish, uning o‘z iqtidori, maslagi va imkoniyatlarini qanday bo‘lsa, xuddi shundayligicha tabiiy tarzda qabo‘l qilish va shu asosda uning rivoji uchun o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlar yaratishni taqozo etadi. Bu vazifani

muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun esa pedagogik-psixologik, ayniqsa ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar olib borishga va ularning empirik natijalariga asoslanib tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirishga to'g'ri keladi. Hozirgi paytda tayyor bilimlarni o'zlashtirish asosiy maqsad bo'lmay, eng asosiysi talaba-yoshlarning intellektual qobiliyatini rivojlantirish, kasbiy qiziqishlarini takomillashtirish, ularning mustaqil tanlash va qaror qabool qilish ko'nikmasini hosil qilish ob'ektiv zaruriyatga aylandi. Kasb ta'limi uzoq davrlar mobaynida har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilib borildi, biroq ushbu jarayon bitiruvchilarning kasbiy mahoratini shakllanish darajasini pasayishi hisobiga amalga oshirildi. Bu holat kasbiy mahoratni va layoqatni oshirish, insonning butun umri davomida o'z bilimini takomillashtirib borish va o'z-o'zini tarbiyalash ehtiyojini oshirishga xizmat qilmas edi. Respublikamiz ta'lim tizimidagi islohatlar natijasida kasbiy ta'lim ishchi kasblariga maxsus tayyorlash masalasiga, ta'lim oluvchi shaxsida kasbiy mahorat va layoqat sifatlarini shakllantirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda psixologlarning vazifalari masalalari, va yoshlar bilan ishlarini olib borishda ularning qiziqishlarini hisobga olish muammolari bo'yicha nazariy va amaliy taxlillar xorij va mahalliy psixologik-pedagogik adabiyotlarda keng yoritilgan. Jumladan: L.I.Bojovich, L.A.Petrovskaya, A.I.Donsov, A.A.Bodalev, M.Ratter, M.M.Ribalkova, G.A.Kovalev, M.G. Davletshin, E.G'.G'oziev, A.I.Ostrovskiy, G.Q.To'laganova, Z.Kamaletdinova, N.G'.Kamilova kabi olimlarning tadqiqotlarida, Shuningdek, Dj.Bugental, K.Levin, A.Maslou, K.Rodgers, V.Frankl, A.Freydlarning psixologik nazariyalari tahlilida kasbiy qiziqishlarni shakllantirishda shaxs imkoniyatlarining kuchi masalasiga keng qamrovli yondashuvni ko'rish mumkin. Ammo, zamonaviy psixologiyada aynan ushbu muammo ustida tadqiqotlar olib borgan mutaxassislar juda ozchilikni tashkil etadi.

Tadqiqot predmeti - Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni diagnostik taxlili va ularda psixokorreksion ishlarni tashkil etish usullarini o'rganish.

Tadqiqot ob'ektini – Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish jarayoni tashkil etadi.

Tadqiqotimiz maqsadi. Shu munosabat bilan tadqiqotimiz maqsadi – Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish va rivojlanishining ijtimoiy psixologik jihatlarini amaliy va nazariy taxlil qilish.

Tadqiqot vazifalari: Tadqiqot maqsadi va gipotezasidan kelib chiqan holda quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish jarayonida ularning psixologik xususiyatlarini taxlil qilish.
2. Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish usullarini o'rganish va amaliyotga tadbirini taxlil qilish.
3. Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish ularni kasbga yo'naltirish, ishlarni tashkil etishda psixokorreksion faoliyati shakllari va usullarini ishlab chiqish.

4. Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish ishlarini tashkil etishda ijtimoiy munosabatlar sharoitida maktab psixologining psixokorreksion faoliyati mazmuniy asoslarini aniqlash.

5. Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda shaxslararo munosabatlar sharoitida psixokorreksion faoliyati shartlarini aniqlash va samaradorligini baholash usullarini ishlab chiqish.

Tadqiqot farazi: Yoshlarning ijtimoiy faolligini shakllantirish va kasbiy moyillikning psixologik mohiyatini tahlili quyidagicha ilmiy farazni ilgari surish imkonini berdi:

-Yoshlar faolligini oshirish ularning ijtimoiylashuv jarayonini shakllantirishda ularga xos sub'ektililikning turli shakllarini faollashtirib, shaxslilik xususiyatlarining rivojlanishiga sharoit yaratishi kasbiy bilimlarini oshirish imkoniyatini ta'minlaydi.;

-Yoshlar faolligini oshirish ularning ijtimoiylashuv jarayonini shakllantirishda hamkorlikdagi munosabatlar ko'rinishidagi alternativa (mumkin bo'lgan qarama-qarshi ikki holdan birini tanlab olish zaruriyati) larni anglash sharoitini yaratish maktab psixologi faoliyatining predmeti bo'lishi mumkin.;

- Yoshlar faolligini oshirish o'zaro hamkorlikdagi faoliyati ularning kasbiy qiziqishlarini shakllanishidagi to'siqlarni bartaraf eta olishlarida o'zini o'zi rivojlantirish sharoiti sifatida xizmat qilishi ehtimol.

Tadqiqotning metodologik asosi. Tizimli yondashuv tamoyili, ong va faoliyat birligi tamoyili, faoliyatda rivojlanish tamoyili, sub'ektililikning aks etishi tamoyili, noadaptiv faollik tamoyillari, yetuk horij va o'zbekistonlik psixologlarning o'smirlik davri psixologiyasiga oid konsepsiyalari hamda "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari bo'yicha hukumatimiz qarorlari tadqiqotning nazariy-metodologik asosini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning barkamol avlodni voyaga yetkazish to'g'risidagi g'oyalariga asoslandik.

Tadqiqotning metodlari sifatida konfliktogen omillar va ularning dinamikasini tizimli o'rganishga yo'naltirilgan psixodiagnostik va korreksion metodlar majmuidan foydalanildi.

1. maqsadli kuzatish;
2. og'zaki ko'rsatmalarni yig'ish va ularni tahlil qilish (suhbat, anketa, yozma hisobot shakli);
3. sotsiometriya;
4. test-so'rovnoma;
5. aks ettirilgan sub'ektililik metodi;
6. DDS metodi.
7. olingan natijalarni matematik tahlil etish usullaridan iborat.

Tadqiqot bazasi– Andijon shaxar pedagogik kasb xunar kolleji yoshlari (1-3 bosqich).

Tadqiqotning nazariy ahamiyati va ilmiy yangiligi: tadqiqot natijalari kasb psixologiyasi, taraqqiyot psixologiyasi, amaliy psixologiya, pedagogik psixologiya fanlarini yangi ilmiy ma'lumotlar bilan boyitadi. Maktab psixologining amaliy kasbiy faoliyatida o'smirlik davridagi yosh-larga xos kasbiy qiziqishlar muammolari masalalarida psixokorreksion ishlarning metodlari va shakllari ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilindi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijalaridan amaliy psixologlar, maktab o'qituvchilar, psixologik-konsultativ markazlar mutaxassislari faoliyatida keng foydalanish mumkin. Shuningdek, ular maktabda psixokorreksion muhitni yaratishda, maktabda tarbiya jarayonining kasbga yo'naltirishg ishlarini tashkil etishda psixokorreksion modelini yanada takomillashtirishda imkoniyatlarni ochib berishi aniq. Olingan natijalar maktabda psixologik xizmatni rivojlantirishning zamonaviy shart-sharoitlarini kengaytirish, maktab psixologlari faoliyati va tarbiyaviy ishlarining dasturini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda qo'l kelishi mumkin. Universitetlar, pedagogika institutlari, pedagogika va psixologiya bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar uchun o'quv qo'llanmalari yaratish, ma'ruzalar matnlarini tayyorlash, innovatsion dasturlar ishlab chiqishda ham ulardan samarali foydalansa bo'ladi.

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar:

1. Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish jarayonini o'rganish - ijtimoiy-psixologik holat sifatida kelgusida psixologik amaliyot shakllari va metodlari yordamida potensial-destruktiv o'rniga konstruktiv yangilanishlarni olib keladi hamda ular shaxslilik rivojlanishining ijobiy kechishini ta'minlaydi.

2. Yoshlarning ijtimoiy faolligini shakllanishining psixologik tahlilida yoshlarni intellektual qobiliyatlarini psixokorreksion faoliyati ular shaxsini faollashtirib, uning shaxslilik rivojlanishiga yordam berish barobarida yoshlarning o'z shaxsiy pozitsiyasi, qiziqishlari, maqsadlarini anglash imkoniyatini beradi hamda ular ijtimoiy xulq-atvor diapozonini kengaytirishga xizmat qiladi.

3. Yoshlarni kasbga yo'naltirish va ularda kasbiy qiziqishlarini shakllanishidagi turli tushunmovchiliklarni oldini olish va bartaraf qilish, salbiy oqibatlarning oldini olishga qaratilib, bu psixokorreksion faoliyat sifatida tashkil etiladi. Va ularningjamiyatdagi ijtimoiy faolligini oshirish asosdia psixologik qoniqish xosil qilinadi.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, 9 paragraf, xulosa, tavsiyalar, adabiyotlar ro'yxati va ilova qismlaridan iborat.

1.bob.Ijtimoiy faollik –ijtimoiy psixologik xodisa sifatida.

1.1 Ijtimoiy faollikning psixologik tafsifi.

Jamiyat bilan doimiy munosabatni ushlab turuvchi, o'z-o'zini anglab, har bir harakatini muvofiqlashtiruvchi shaxsga xos bo'lgan eng muhim va umumiy xususiyat - bu uning faolligidir.

Faollik (lotincha “actus” - harakat, “activus” - faol so'zlaridan kelib chiqqan tushuncha) shaxsning hayotdagi barcha xatti - harakatlarini namoyon etishini tushuntiruvchi kategoriyadir. Bu - o'sha oddiy qo'limizga qalam olib, biror chiziqcha tortish bilan bog'liq elementar harakatimizdan tortib, toki ijodiy uyg'onish paytlarimizda amalga oshiradigan mavhum fikrlashimizgacha bo'lgan murakkab harakatlarga aloqador ishlarimizni tushuntirib beradi. Shuning uchun ham psixologiyada shaxs, uning ongi va o'z-o'zini anglashi muammolari uning faolligi, u yoki bu faoliyat turlarida ishtiroki va uni uddalashi aloqador sifatleri orqali bayon etiladi. Har qanday sharoitda ham barcha harakatlar ham ichki-psixologik, ham tashqi - muvofiqlik nuqtai nazaridan ong tomonidan boshqarilib boradi. Har qanday faoliyat tarkibida ham aqliy, ham jismoniy - motor harakatlar mujassam bo'ladi. Masalan, fikrlayotgan donishmandni kuzatganmisiz? Agar o'ylanayotgan odamni ziyraklik bilan kuzatsangiz, undagi etakchi faoliyat aqliy bo'lgani bilan uning peshonalari, ko'zlari, xattoki, tana va qo'l harakatlari juda muhim va jiddiy fikr xususida bir to'xtamga kelolmayotganidan, yoki yangi fikrni topib, undan mamnuniyat his qilayotganligidan darak beradi. Bir qarashda tashqi elementar ishni amalga oshirayotgan - misol uchun, uzum ko'chatini ortiqcha barglardan xalos etayotgan bog'bon harakatlari ham aqliy komponentlardan xoli emas, u qaysi bargning va nima uchun ortiqcha ekanligidan anglab, bilib turib olib tashlaydi.

Fanda inson faolligining asosan ikki turi farqlanadi:

A. Tashqi faollik - bu tashqaridan va o'z ichki istak-xoxishlarimiz ta'sirida bevosita ko'rish, qayd qilish mumkin bo'lgan harakatlarimiz, mushaklarimizning harakatlari orqali namoyon bo'ladigan faollik.

B. Ichki faollik - bu bir tomondan u yoki bu faoliyatni bajarish mobaynidagi fiziologik jarayonlar (moddalar almashinuvi, qon aylanish, nafas olish, bosim o'zgarishlari) hamda, ikkinchi tomondan, bevosita psixik jarayonlar, ya'ni aslida ko'rinmaydigan, lekin faoliyat kechishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'z ichiga oladi.

Misol tariqasida hayotdan shunday manzarani tasavvur qilaylik: uzoq ayriliqdan so'ng ona o'z farzandi visoliga etdi. Tashqi faollikni biz onaning bolasiga intilishi, uni quchoqlashi, yuzlarini siylashi, ko'zlaridan oqqan sevinch yoshlarida ko'rsak, ichki faollik - o'sha ko'z yoshlarini keltirib chiqargan fiziologik jarayonlar, ichki sog'inchning asl sabablari (ayriliq muddati, nochorlik tufayli ayriliq kabi yashirin motivlar ta'siri), ko'rib idrok qilgandagi o'zaro bir-birlariga intilishni ta'minlovchi ichki, bir qarashda ko'z bilan ilg'ab bo'lmaydigan emotsional holatlarda namoyon bo'ladi. Lekin shu manzarani bevosita guvohi bo'lsak ham, uni ifodalagan rasmni qursak ham,

taxminan qanday jarayonlar kechayotganligini tasavvur qilishimiz mumkin. Demak, ikkala turli faollik ham shaxsiy tajriba va rivojlanishning asosini tashkil etadi. Bir qarashda har bir konkret shaxsga va uning ehtiyojlariga bog'liq bo'lib tuyulgan bunday faollik turlari aslida ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, shaxsning jamiyat bilan bo'ladigan murakkab va o'zaro munosabatlarining oqibati hisoblanadi.

Inson faolligi “harakat”, “faoliyat”, “xulq” tushunchalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, shaxs va uning ongi masalasiga borib taqaladi. Shaxs aynan turli faolliklar jarayonida shakllanadi, o'zligini namoyon qiladi ham. Demak, faollik yoki inson faoliyati passiv jarayon bo'lmay, u ongli ravishda boshqariladigan faol jarayondir. Inson faolligini mujassamlashtiruvchi harakatlar jarayoni faoliyat deb yuritiladi. Ya'ni, faoliyat - inson ongi va tafakkuri bilan boshqariladigan, undagi turli-tuman ehtiyojlardan kelib chiqadigan, hamda tashqi olamni va o'z-o'zini o'zgartirish va takomillashtirishga qaratilgan o'ziga xos faollik shaklidir. Bu - yosh bolaning real predmetlar mohiyatini o'z tasavvurlari doirasida bilishga qaratilgan o'yin faoliyati, bu - moddiy ne'matlar yaratishga qaratilgan mehnat faoliyati, bu - yangi kashfiyotlar ochishga qaratilgan ilmiy - tadqiqotchilik faoliyati, bu - rekordlarni ko'paytirishga qaratilgan sportchining mahorati va shunga o'xshash. Shunisi xarakterliki, inson har daqiqada qandaydir faoliyat turi bilan mashg'ul bo'lib turadi. Ijtimoiy faollik kishilarning ijtimoiy voqelikning biror bir sohasidagi fikrlari, his-tuyg'ulari va hatti-harakatlarini jamlashga jamiyat hayotiga baho berishga va shu asosda ijtimoiy voqelikning tegishli tomonlarini o'zgartirishga ta'sir ko'rsatadi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda «ijtimoiy faollik»-shaxsning har sohadan xabardorlik, komillik darajasini ko'rsatuvchi mezon, deyish mumkin. Ijtimoiy faolikka intilib yashashning o'zi g'oya hisoblanadi. Uning mazmunini esa jamiyat ma'naviy yuksalishini ta'minlaydigan bilim, odob axloq, iste'dod, qobiliyat, ijobiy ko'nikma va malakalar, bular asosida shakllangan dunyoqarashlar majmui tashkil etadi. Yoki aniqroq aytsek, ijtimoiy faollik shaxs ma'naviyatini kamolot sari etaklovchi, barcha ijobiy mazmunga ega sifatlarni o'zida mujassam etgan, ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qiladigan g'oyalar majmuidan iborat. Bo'lajak o'qituvchi talabaning ijtimoiy faolligi shaxs sifati bo'lib, jamiyat ravnaqi yo'lidagi g'oyaviy, siyosiy, kasbiy-madaniy va fuqarolik mas'uliyatining qonuniy ifodasidir. har bir bo'lajak o'qituvchi o'z faniga oid ilmiy bilimlarni egallash bilan bir qatorda jamiyatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar mazmunini, mamlakatda yuz berayotgan o'zgarishlarni anglab etishi, g'oyaviy jihatdan qurollangan bo'lishi ham talab etiladi.

Talaba-yoshlarni O'zbekiston prezidenti I.A.Karimov asarlarida bayon qilingan ijtimoiy faol va raqobatbardosh, kadrlar tayyorlashga oid nazariy g'oyalar, sharq mutafakkirlarining barkamol inson tarbiyasiga oid qarashlari, shuningdek, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida ma'naviy jihatdan shakllantirish ularga kasbiy bilimlar berish o'qituvchi kasbiga tegishli malaka va ko'nikmalarni hosil qilish jarayoni bilan uzviylikda olib

boriladi. Bu uzviylik pedagogika fanlari hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi mazmunidagi o'zaro aloqador xususiyatlarga bog'liq. Demak, talaba-yoshlarni tarbiyalashda pedagogika oliy o'quv yurtlari oldida turgan muhim vazifa hozirgi davr talabiga javob bera oladigan, erkin fikrlaydigan, o'z fanini chuqur biladigan, kasbiy mahorati kuchli, tashabbuskor, dunyoqarashi keng, ijtimoiy faol, yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassis kadrlarni tayyorlashdan iborat. Buning uchun Kadrlar tayyorlash milliy modeli asosida ijtimoiy faol o'qituvchi shaxsini shakllantirish mexanizmini quyidagi jadval ko'rinishida belgilashni maqsadga muvofiq deb topdik.

Ijtimoiy faollik sifatlarining asosiy elementlarini o'ziga singdirib olgan har bir talaba yosh, bo'lajak mutaxassis sifatida xayot qonuniga mas'uliyat bilan yondashib, ijtimoiy-iqtisodiy voqelikni aniq idrok etishga, o'zi va kasbdoshlarining sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishga, ezgu maqsad yo'lidagi to'siqlarning hech biridan cho'chimay engib o'tishga tayyor bo'ladi. Ya'ni, demokratik xuquqiy davlatning shakllangan ijtimoiy faol fuqarosiga aylanadi. tula bilimlarga tomon xarakat kilish sifatida soodir bo'ladi. Bilish tevarak-atrofdagi odamning narsa va xodisalarni xissiy idrok kilishdan boshlanadi. Tashki olamning sezgi, idrok va tasavvurning xosil bulishiga olib keladi, bular real borlikdagi narsalarni inson ongida aks ettiradi. Tevarak-atrofdagi olamga muvaffakiyatli ta'sir etish uchun bu olam rivojlanishining ob'ektiv konuniyatlarini bilish kerak. Fakat xissiy bilish yordamidagina bu konunlarning moxiyatini tushunish mumkin emas. Abstrakt tafakkur tabiat va jamiyat xayoti rivojlanishining ob'ektiv konunlarini bilishga xizmat kiladi. Abstrakt tafakkur xissiy bilish axborotlarini umumlashtirib, narsa va xodisalaridagi hamma muxim bulmagan tasodifiy tomonlardan uzoklashadi hamda narsa va xodisalarining moxiyatiga kirib borib, ularning rivojlanishidagi umumiy konuniyatlarni ochib beradi. Umumlashtirish natijalari fan tushunchalari va konuniyatida ifodalanadi. Ularning xakikiyligi amaliyotda tikshiriladi, amaliyot bilimlarning xakikiyligini kursatuvchi oliy mezondir. Birok olimning xali noma'lum bulgan sirlarini bilishi bilan, yoshning fanlar soxasida bayon kilingan bilimlarni bilishi urtasida katta fark bor, ya'ni olim yangilikni kashf kiladi, yosh esa tayyor sinalgan bor bilimlarni o'zlashtiradi. Yoshlarning bilimlarni o'zlashtirish jarayoni uziga xos xususiyatlarga ham egadir. Avvalo bu o'zlashtirish bu o'zlashtirib olish o'qituvchi raxbarligida bo'ladi va shuning uchun tugri yul bilan amalga oshiriladi. Bu o'zlashtirish insonning borlikni bilib olish jarayonida uchraydigan egri-bugri yullar va yanglishuvlarni chetlab utib, ancha kiska yul va muddatda ruy beradi.

Yoshlar o'qib, o'quv fanlarining mazmunini o'zlashtira borib, ob'ektiv olamni bilib boradilar. Ular ilmiy bilimlarning hammasini emas, balki ularning «fan asoslari» deb ataladigan bir kisminigina o'zlashtirib oladilar. Ma'lumki, odam muayyan bilim, kunikma, malaka xosil kilish uchun xulk-atvor shakllarini ham urganib olishi uchun, ijtimoiy tajribalardan tashkil topgan malakalarning asosiy xajmini egallab olish uchun u o'quv-tarbiya tizimining turli soxalari bilan

mashgul bulmogi va bu ishlarga jalb etilmogi kerak. Bunday xodisalarda tegishli bir mazmunni o'zlashtirib olish bir-biri bilan alokador bulgan ikki jarayon: ta'lim olish va o'qitish jarayonining natijasi sifatida zikr etiladi. Fan-texnika tarakkiyoti hamda uzluksiz ta'lim olish goyasi amalga oshirilayotgan bir sharoitda ta'lim inson sotsial faolligining predmetli faoliyatning sub'ekti hamda ijtimoiy tarakkiyotning faol ishtirokchisi sifatida uzini doimiy ravishda kamolga etkazishga karatilgan faol sotsial faoliyatning mustakil shakli sifatidan kuprok ahamiyat kasb eta boradi.

Ta'limda ko'prok so'zlar-tushunchalar shaklida ifodalangan umumlashtirilgan bilimlar o'qituvchi tomonidan bayon etiladi, yoshlar tomonidan esa bu bilimlar idrok qilinadi, o'zlashtiriladi, real narsalarni idrok qilish esa bunda yordamchi rol o'ynaydi. Yoshlar ta'lim jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni egallab oladilar. Bilimlarda ob'ektiv olam umumlashtirilgan xolda aks ettiriladi. Bilimlarni o'zlashtirish faktlar, tushunchalar va qonuniyatlarni o'rganishni nazarda tutadi. Yoshning bilimlari to'la bo'ulishi, uning bilimlar tizimini egallab olishi juda muximdir, bu bilimlar tizimida faktik materialni bilish uning mantiqiy jixatdan to'g'ri deb topilgan tuzilishi va umumlashtirilishi bilan qo'shilib ketadi. Xar kanday ta'lim, ayniksa ishlab chiqarish ta'limi, faqat tasavvur va tushunchalar tizimining xosil bo'lishi bilan cheklanishi mumkin emas. Ishning qanday bajarilishi ham etarli emas. Uni bajara bilish kerak. Ko'nikma va malakalar istalgan mexnat turida bilimlarni egallash va ulardan foydalanishga xizmat kiladi.

Ko'nikma – kishining ma'lum bir xarakatlarni ongli ravishda bajarish kobiliyatidir, bu kobiliyat bilimlar va eng oddiy tajriba asosida xosil kilinadi. Bilimlar bajarilayotgan xarakatning nazariy asosi xisoblanadi. Bilimlar tufayli xarakatlarning ayrim boskichlari va ularning ketma-ketligi tushunarli bo'ladi. Ko'nikmalar – bu amaldagi bilimlardir. Ko'nikmalarning turlari juda xilma-xildir.

Malaka – mashk kilish yuli bilan xosil bo'ladigan ish-xarakatdir. Mashq qilish natijasida yurish, o'qish, yozish, og'zaki hisoblash, xilma-xil mexnat operatsiyalarini bajarish malakalari hosil qilinadi. Yosh xarakatni bajarishning muayyan usullarini egallab oladi va bu ishni guyo ongning nazoratisiz, avtomatik tarzda bajaradi. Masalan, mexanizmni yigish uchun operatsiyalar ketma-ketligini tasavvur qilish, keraqli asbobni tanlash lozim. Agar xarakat odatdagi bir xarakatga aylansa, u ongning zoxiriy ishtirokisiz bajariladi. Masalan, detalni kiskichga kisish yuzasidan kilinadigan xarakatlarni kup marta takrorlash ishchini xar doim bu xarakatning ketma-ketligini uylab kurishdan ozod kiladi. Ishning mazmuni, shakli uzgargandagina odatdagi sharoitlari uzgargandagina ishchining ongi ishga kirishadi.

Individida jamiyat tomonidan usha predmetlardan foydalanish yuzasidan kabul kilangan usullarning psixik mexanizmlari shakllantirilgan bulmogi lozim. Agar o'quv faoliyati ma'naviy madaniyat mazmunini egallab olishga karatilgan bulsa, unday xollarda individning shaxs ongida tegishli mazmunni kayta tiklash uchun zarur bulgan mukammal xarakat va operatsiyalarni egallab

olmogi muximdir. Chunki, tadkikotlarning ko'rsatishicha, tevarak atordagi vok'elikning in'ikosi inson bilan uning faoliyati jarayonida ob'ektiv reallik obrazini kishi ongida faol shakllantirishdan iborat bo'ladi. O'quv faoliyati o'z navbatida bir kancha komponentlardan tashkil topadi. Ularni shartli ravishda kuzgovchi, programma-maksadli, xarakat-operatsion hamda nazorat kiluvchi-muvofiklashtiruvchi komponent deb atalishi mumkin bulgan strukturali komponentlarga ajratish mumkin. Qo'zgovchi komponent bilishga bo'lgan ehtiyojlarni ana shu boisda shakllantirilgan o'quv motivlarini o'z ichiga oladi. Yangi bilimlar olish extiyoji motiv sifatida kizikish kurinishida bulishi mumkin. Xar kanday faoliyatning, shu jumladan, o'quv faoliyatining asosida ham kuzgatuvchi komponent yotadiki, u barcha komponentlarga, ularning kechish dinamikasi va xosil qilinadigan pirovard natijaga ham bevosita ta'sir kursatadi.

O'quv faoliyati programmali-maksadli komponentning asosiy elementi sifatida maydonga chikadi, anikrog'i, o'sha faoliyatning ideal tarzdgagi pirovard natijasi sifatida namoyon bo'ladi. O'quv maksadining mazmuni hamda uning shakllanish jarayoni, avvalo, bir kator vaziyatlarni yoshlar tomonidan to'la anglab etilishi bilan belgilanadi. Yoshning o'quv faoliyati asosida yotgan motivlarni, konkret sharoitda o'quv vaziyati konkret bilim olish sharoitida hamda o'z faoliyatini muvaffakiyatli tarzda amalga oshirish uchun zarur kunikma va malakalarga konkret o'quv sharoitida kuyiladigan talablarni aloxida ajratib kursatish lozim. O'z oldiga aniq maqsad qo'yish – o'quv faoliyatini kengaytira borishdagi muxim bosqichdir. Pirovard natijada mo'ljallangan aniq maqsadga erishish uchun xarakat dasturini ishlab chiqish, bunday maqsadning asosini tashkil qiladi.

Xarakatli-operatsion komponenti o'quv faoliyatidagi xatti-xarakat va operatsiyalarni uzida mujassamlashtiradi. Bunday xatti-xarakat davomida ilgari tuzib chikilgan dastur amalga oshiriladi. O'quv faoliyati strukturasida pertseptiv, mnemonik, predmetli, nutkli va aqliy faoliyat xarakatlarini ajratib kursatish mumkin. O'quv faoliyatining tarkibi, avvalo, o'quv materialining mazmuni, o'quv faoliyatining maksadi, yoshlar tomonidan o'quv ishlari usullarining egallab olish darajasi muayyan pedagogik vaziyatda yoshning munosabati bilan belgilanadi. Operatsiyalar o'quv faoliyatini amalga oshirish usuli xisoblanadi. N. F. Talizina ta'kidlab utganidek, operatsiyalarni izchil bajara borish faoliyat jarayonini tashkil etadi. O'quv faoliyatini amalga oshirish usullari karab chikilar ekan, bu erda E. N. Kabanova – Meller fanga kiritgan o'quv ishining usuli degan tushuncha bilan tanishib chikish maksadga muvofikdir. O'quv ishining usuli – bu bir kator o'quv xarakatlarining yigindisi bulib, ular muayyan bir tizimga birlashadi. Mazkur tizimning ishga solinishi qo'yilgan o'quv maksadiga erishishni ta'min etadi.

A.G.Kovalevning fikricha, shaxs - bu ijtimoiy munosabatlarning ham ob'ekti, ham sub'ektidir.

A.N.Leontev ushbu masalaga boshqacharoq yondashib, unga shunday ta'rif beradi: shaxs - bu faoliyat sub'ektidir.

K.K.Platonovning talqiniga binoan: jamiyatda o'z rolini anglovchi, ishga layoqatli, yaroqli a'zosi shaxs deyiladi. Bu muammo mohiyatini chuqurroq ochishga harakat qilgan

S.L.Rubinshteyn ta'rificha, shaxs - bu tashqi ta'sirlar yo'nalishini o'zgartiruvchi ichki shart-sharoitlar majmuasidir.

1.2 Jahon psixologlari tomonidan muammoning o'rganilishi.

Jahon ilm-fani rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk qomusiy olimlar – Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad al-Farg'oni, Mirzo Ulug'beklarning ilmiy qarashlari ham izchil bilim olish, mavjud bilimlarni o'rganish, o'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash, mashq qilish, turli tajribalarni o'tkazish asosida shakllangan. Yoshlarning ijtimoiy faolligi, ularni mamlakat hayotining barcha sohalarida to'laqonli ishtirokini o'rganish masalasi,

- birinchidan, yoshlarning ijtimoiy mavqeining bugungi holati,
- ikkinchidan, jamiyatning faol huquqli fuqarosi sifatida qobiliyat va imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash va nihoyat
- uchinchidan, ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilash imkonini yaratadi.

Hayotiy muammolar, ayniqsa yoshlarning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hayotga kirib kelishi, jamiyat hayotiga faol aralashuvi faqat pedagog va psixologlarni emas, balki faylasuf, sotsiolog, aholishunos, huquqshunoslarni ham qiziqtirib keladi. Qadim zamonlardayoq bu muammolar insoniyatning buyuk mutafakkirlari e'tiborida bo'lib kelgan. Suqrot, Aflotun, Arastu, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Avloniy kabi qomusiy olimlar va ma'rifatparvarlarning, al-Buxoriy, Yassaviy, at-Termiziy, Bahouddin, Naqshband kabi din arboblarning asarlarida ularga diqqat qaratilgan. Zigmund Freyd aytganidek, novatorlik, dinamika va energetik omillar harakat uyg'unligi, ya'ni yangilikka intilish, insonning tadrijiy kamoloti, etuklik evolyutsiyasi, xatti-harakatlarining faollashuvi insondagi uyg'onish jarayoni qanday kechayotganligini belgilaydi. Inson hayotda inert, mo'rt va karaxt yashab o'tishi, ya'ni butunlay hech narsani anglamasligi yoki anglash oldi jarayonlarida bo'lishi yohud tom ma'nodagi anglash holatlariga erishishi bilan farqlanadi. Ushbu xususiyatlarni aniqlash jamiyat a'zolarining faollik darajasi ko'lamini aniq-ravshan belgilashga yo'l ochadi.

Muayyan faoliyatni doimiy ravishda tashkil etish shaxsda ma'lum ko'nikmalarni hosil qiladi. Ko'nikmalar esa faoliyatni izchil davom ettirish jarayonida malakalarga aylanadi. Shakllangan malaka esa shaxs tomonidan faoliyatning tezkor, sifatli, samarali kechishini ta'minlaydi. Faoliyatda samaradorlikka erishish insoniyatni qay darajada qiziqtirib kelgan bo'lsa, uni tashkil etayotgan shaxsning kasbiy malakaga ega bo'lishi ham shunday dolzarblik kasb etgan. Kasbiy malakaga ega bo'lish ijtimoiy, shu bilan birga shaxsiy ahamiyatga egadir. Shu sababli kadrlarning kasbiy malakalarini oshirish ta'lim tizimining muhim yo'nalishi bo'lib kelgan. "Malaka, avvalo, maxsus bilim, so'ngra uzoq vaqt qayta-qayta takrorlanadigan mashqlar tufayli egallanadigan tajriba va ko'nikmalarning ongli ravishda aql-idrok hamda tafakkur chig'irig'idan o'tkazilgan holda mujassamlashuvi hisoblanadi" [71, 7]. Shaxsda o'zini-o'zi nazorat qilish muammosi xorij

psixologlaridan M.I.Bornishevskiy, V.V.Davo'dov, L.B.Itelson, A.N.Leonto'ev, I.N.Margamen, A.K.Markova, V.I.Straxov, A.Ya.Savchenko, D.B.Elkonin, T.I.Gavalova, A.I.Lipkina, K.A.Maltseva, G.A.Sabieva, A.K.Serdyuk, S.P.Tihenko, P.Ya.Galperin, A.V.Zaxarov, V.G.Romanko, N.I.Kuvshinov va boshqalar tomonidan keng doirada tadqiq qilingan.

Kishining tevarak-atrofdagi munosabat, birgalikda faoliyat va ijodiy ish jarayonida namoyon bo'ladigan ijtimoiy ahamiyatga molik o'zgarishlar qilish layoqati shaxsning faolligi sifatida tushuniladi. Shaxs faolligini ancha umumiy tarzda, birikma xolidagi ta'rifi uning goyaviy prinsipiialligida, uz nuktai nazarini izchil ximoya qila borishida, so'zi bilan ishining birligida ifodalanadigan faol xayotiy pozitsiyasini bildiradi. Jamiyatda faol xayotiy pozitsiya ijtimoiy burchga nisbatan ongli munosabatda bo'ulishni, jamoachilikni, faoliyatga nisbatan ijodiy munosabatda bo'lishni, ilmiy dunyoqarashga tayanadigan e'tiqodni, ijtimoiy-axloqiy qoidalarining buzilishiga murosasizlikni taqozo etadi.

Ijtimoiy foydali faoliyatda me'yoridan ortiqcha deb atalmish faollik kishilarga xos faol xayotiy pozitsiyada turishning eng muxim ko'rinishlaridan biri xisoblanadi. Me'yoridan ortiqcha faollik-shaxs faolligining turli xolda namoyon bo'lishining ijtimoiy jamiyatda ro'y beradigan turidar. Me'yoridan ortiqcha faollik muayyan shaxs uchun qat'iy majburiy bo'lmagan, lekin jamiyatning oliy maqsadlariga va qadriyatlariga mos keladigan faoliyat ko'rsatilishini taqozo etadi. o'zi uchun majburiy bo'lgan, ya'ni qoida tarzidagi faollik o'qishda, mexnatga tayyorgarligi yetarli darajada faollik kursatmasdan, ba'zi xollarda xammaning kuz ungida "me'yoridan ortikcha" faolligi haqida tasavvur xosil qilish uchun urinadi. Jumladan, u devoriy gazeta chikarishni uz zimmasiga olayotib, extimol, bu bilan uzining butun kollektivga ma'lum bo'lib kolayotgan faoliyatsizligini yashirishga uringan bo'lishi xam mumkin. Me'yoridan ortikcha faollik me'yoridagi (normativ) faollikdan xoli va undan tashkarida yuz berishi mumkin emas. Shaxsning moslashuvchan likka xam, xulq atvorning salbiy (nokonformliligi) turiga xam zid bo'lgan jamoa tarzida o'zini-o'zi belgilashi xam uning faol xayotini pozitsiyasidan dalolat beradi. Yosh yigit va kizlarda faol xayotiy pozitsiyaning shakllantirish axloqiy tarbiyaning eng muxim vazifalaridan biridir.

Xozirgi paytda garb psixologiyasida shaxsni tadqiq qilish va tushunish borasida "insonparvarlik psixologiyasi" deb atalmish psixologiya vakillarining psixoanalitik nazariyalari va qarashlari (shaxsning ekzistensialist nazariyalari) eng nufuzli yunalishlar bo'lib xisoblanadi.

Asrimiz boshlaridayok venalik psixiatr va psixolog Z.Freyd kishi shaxsi faolligi manbai va xarakterining uzicha talkinini tavsiya kilgan edi. Uning kupchilik izdoshlari tomonidan ma'kullangan nuktai nazariga kura, kishi unda xayvonot dunyosiga mansub ajdodlaridan meros kilib olgan instinktiv mayllar va, eng avvalo, jinsiy instinkt va uzini ximoya qilish instinkti mavjud bo'lganligi tufayli faoldir. Uzini xayvonot olamida bo'lgani kabi namoyon kila olmaydi, negaki, jamiyat kishini kuplab cheklashlar turiga urab tashlaydi, uning instinktlari va mayillari "senzura"ga rubaru kiladi, bu esa kishini ularni cheklashga, tayilishga majbur etadi. Instinktiv mayllar shu

tarika shaxsning anglanilgan xayotidan sharmandali bo'lgan, man etilgan va obru-e'tiborga putur yetkazadigan xodisalar sifatida chikarib tashlanadi va anglanilgan soxasiga aylanadi, "yashirin yashay boshlaydi", lekin yukolib ketmaydi. Ular uzining xarakatlanuvchi kuchini, uz faolilgini saklab kolgan xolda anglanilganlik soxasida sekin-asta kishilik madaniyatining turli shakllari va inson faoiyati maxsuli tusiga kirib (kismlarga ajratgan xolda) shaxsning xulk-atvorini yunaltirishni davom ettiraveradi. Anglanilganlik soxasida instinktiv mayllar uzining kelib chikishiga boglik xolda turlicha "kosplekslar"ga birlashadi, bu esa, Freydning va freydchilarning ta'kidlashlaricha, shaxs faolligining xakikiy sababi bo'lib xisoblanadi.

Freydning shaxs faolligi haqidagi konsepsiyasi (barcha xatolariga qaramay, uning yutugi anglanilmaganlik va moyilliklar jabxasiga e'tiborni jalb etganligida edi)ni xatto bolaning shaxvoniyl istaklari va qo'rqinchlari haqida xech narsaga asoslanmagan xayoli uydirmalarini bir chekkaga surib qo'ygan xolda diqqat bilan qarab chiqilishi bu yerda faollikning o'zi xam biologik tabiiy kuch deb tushunilayotganini payqab olish imkonini beradi. U xayvonlar instinktiga o'xshash, ya'ni o'zining barcha o'lchovlariga, "sublimasiya"lari ("kismlarga ajratilishi") va unga qarama-qarshi qo'yilgan jamiyat bilan mojarolari bo'lgani xolda o'sha xayvonlar istinkti singari anglanilmagan bo'ladi. Bunda jamiyatning vazifasi mayllarni seklashda va "senzura" ostiga olishdan iborat bo'lib koladi. Shaxs va uning faolligini bunday tarzda talkin qilish shaxsning ijtimoiy mavjudot emas, balki biologik jonzot ekanligi haqidagi baxoni keltirib chiqaradi. Bunda inson va jamiyat bir-birlariga prinsipial jixatdan yotdirr va ularning "uygun tarzda" munosabat o'rnatishlari faqat birinchi ikkinchisining kuchi bilan bostirilgan taqdirdagina, birining ikkinchisi ustidan abadiy zo'rliqi bo'lgandagina, anglanilgan jabxaning isyon ko'tarishi, tajovuzga yuz tutishi, ichki a'zolarining kasallanishi va xokazolar doimiy xavf solayotgan taqdirdagina mumkin deb faraz qilinadi.

Freydning shaxs faolligini butunlayicha fakat shaxvoniyl xirsga boglik kilib kuyishga intilishi markscha yunalishda bo'lmagan psixologiyaning xam kupchiligida e'tiroz tugdirdi. Bu xol klassik freydizmning va undan muayyan chekinishlarnin birikuvidan iborat xususiyatga ega bo'lgan neofreydizm (A.Kardiner, E.From, K.Xorni va boshkalar)ning kelib chikish sabablaridan biri bo'lgan edi. Neofreydchilar shaxsning faolligini tushunish borasida shaxvoniyl mayllarning ustunligi fikridan voz kechishadi va insonning biologik mavjudotligidan chetga chikishadi. Shaxsning muxitga boglikligi birinchi uringa kuyiladi. Bunda shaxs guyo uni beixtiyor belgilaydigan ijtimoiy muxitning shunchaki oddiy tasviri sifatida namoyon bo'ladi. Muxit shaxsga uzining eng muxim xususiyatlari aksini singdiradi. Ular ana shu shaxs faolilginin kurinishlariga aylanadi. Masalan, qkanday bo'lmasin mexr qo'yishlariga va ma'kullashlariga muvaffak bo'lish uchun intilish, xokimiyatning, obru-e'tiborning va soxiblikning orqasidan quvish, obru-e'tiborli odamlar guruxining fikriga buysunishga va kabo'l kilishga intilish, jamiyatdan uzini olib kochish

ana shunday kurinishlardir. Bu konsepsiyalarda xam shaxsning faolligi xakikatga tugri kelmaydigan fikriligicha koladi.

Shaxsni va uning faolligini tushunish borasida garb psixologiyasi (asosan amerikaparast psixologiya)ning boshka bir nazariy yunalishi "insonparvarlik psixologiyasi" birinchi karashda psixoanalitik yunalishga nimasi bilandir zid bo'lib kurinadi. Lekin keyinchalik ular uzlarining asosiy ta'riflariga kura bir-birlariga yakinlashib ketgani anik-ravshan bo'lib koladi. Faollikning manbaini kashf etishga urinarkan, utmishga bolaning "anglanilmagan xolatga surib chikarilgan" taassurotlari va kechinmalariga murojat kiladigan psixanalitiklardan farkli ularok rivojlanishi K.Rodjers, A.Maslou, G.Olport va boshkalarining ilmiy ishlari bilag boglik bo'lgan "insonparvarlik psixologiyasi" kelajakka, uzligini eng kup darajada namoyon kilishga (uzini faollishtirishga) intilishni shaxs faolligining asosiy omili deb xisoblaydi.

Maslou, Rodjers va "insonparvarlik psixologiyasi"ning boshka vakillari uzini faollashtirishni uz moxiyati e'tibori bilan egosentrik (uzini xammadan ustun kuyish) jarayonga aylantirib yuborishadi. Uzligini faollashtirish, A.Maslouning fikricha, uzini va fakat uzini ruyobga chikarish uchun intilishdirki, bu ijodiy faollik va "xususiy Men"ini tulakonli namoyon kilish uchun intilish kabi fazilatlarga ega bo'lgan "uzini faollashtiruvchi shaxslar"ning (A.Maslouning fikricha, ularning soni unchalik kup emas-1 prosent atrofida bo'ladi) uta individualligi haqida dalolat beradi. Xaqiqatda esa agar uzligini faollashtiruvchi shaxsni o'z xatti-xarakatlari va ishlari bilan uzini ijtimoiy jixatdan shart kilib kuyilgan alokalar orkali boglangan boshka odamlarning xissiy va akliy jixatlaridagi uzgarishlarni ta'minlovchi sifatida personajlashuvini amalga oshiradigan faoliyat va munosabat sub'yekti tarzida tushuniladigan bo'lsa, u xolda A.Maslou va boshqalar tomonidan e'lon qilingan o'zini faollashtirish uydirmaligidan nari utmaydi. Xaykalni yasayotgan xaykaltarosh marmarda o'z rejasini mujassamlashtirishdek ijodiy intilishini ruyobga chikaradi va avvalom bor usha intilishning uzini anglab yetgan bo'ladi. Shaxsning A Maslou konsepsiyasiga uxshash tarzda "o'zligini namoyon etishi" va "o'zini faollashtirish" kabi xar xil nazariyalar aynan ana shu momentni ushlab oladi va shu bilan uralashib koladi. Bu xolda san'atkor nima uchun uz ijodining maxsulini loji boricha kuprok odamlarga va, ayniksa, uzicha "kadriga yetmaganlar" deb xisoblaydiganlarga, ya'ni uzining referent guruxiga namoyish kilishga intiladi? Shunchaki uzligini namoyon kilish, buyumda ruyobga chikarish, nixoyat buning uchun pul olish bilan uzining faollashtirish xam tugallaganday bo'lib tuyuladi. Shubxasiz, ijodiy faoliyat sub'yekt-ob'yekt (rassom-kartina) ishi bilan tugallanmaydi va maksad rassomning uzi "boshkalar" xisoblaydiganlar uchun axamiyatli bo'lgan muqarrar personajlashuvini amalga oshirish imkonini beradigan sub'yekt-ob'yekt-sub'yektga oid boglanishning navbatdagi bo'gini xosil qilinmagunga qadar ruyobga chiqmagan bo'lib qoladi.

1.3 O'zbek psixologlari izlanishlarida yoshlar muammolari.

Hozirgi zamon psixologiyaning fani va amaliyoti shaxs faoliyatini ijtimoiy soxadan ajralgan holda o'rganish murakkab ekanligini takidlamogda. Shaxs psixologiyasi xaqida malumotlar berilishini takidlagan holda bo'larda asosan shaxs rivojlanishining ijtimoiy jihatdan mavjud qonuniyatlarini o'rganishga ko'proq e'tibor berish talab etiladi. Shu jihatdan shaxsning rivojlanishi va ijtimoiylashuv muammosi yuzasidan nazariy bilimlar ijtimoiylashuv bosqichlari, maskanlari, sohalari, shaxs ijtimoiylashuvi va agressivlik, tortinchoqlik, shaxsning muloqot jarayoni kabi ijtimoiylashuv bilan bog'liq muammolar bo'yicha dastlabki bilimlar, ko'nikma va malakalarini shakllantirib, bu borada olib boriladigan tadbqiqiy sohalar bo'yicha ma'lumotlar berishdan iborat.

Shaxsni o'quv faolligiga tayyorlash va uni ijtimoiy jihatdan to'g'ri yo'naltirish jarayoni hamma davlatlarda va hamma zamonlarda ham jamiyatning, xalqning, ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim, dolzarb vazifalaridan biri bo'lib kelgan. Bu borada Sharq allomalarining va ilg'or psixologiya fani vakillarining juda ko'plab ilmiy fikr-mulohazalari yuqorida bayon etilgan. E'tirof etish kerakki, yuqoridagi fikr-mulohazalarda munosabat motivatsiyasining tarixi, buguni va kelajagi haqida qator nazariy mulohazalar va mushohadalar asosli ravishda bayon etiladi. Ayniqsa, bu borada O'zbekistondagi olimlar tomonidan ham bugungi kunda olib borilayotgan psixologik tadqiqotlar ko'lamiga va taraqqiyotiga alohida urg'u berish mumkin. Albatta, o'quv faolligi masalasi keng qamrovli jarayon bo'lganligi uchun uning juda ko'p qirralari yuqorida qayd etilgan tadqiqotlar orqali ochib beriladi. Aytish mumkinki, bu borada juda ko'plab psixologlar, pedagoglar, faylasuflar, sotsiologlar va boshqa soha vakillari tomonidan tahsinga sazovor ishlar amalga oshirilgan va oshirilmoqda. Lekin, shunday bo'lsa-da, aynan o'quv faolligiga munosabat tizimining shakllanishi, uning o'ziga xos ijtimoiy psixologik ierarxiyasi va motivatsiyasi shakllanishining bugungi yutuqlarimizga mos qirralari haqida batafsilroq tadqiqotlar olib borilishiga bo'lgan ehtiyojining tobora ortib borayotganligini ham sezmaslik mumkin emas. Chunki, o'quvchi shaxsining o'quv jarayoniga bo'lgan real ichki (pozitiv), munosabat motivatsiyasi imkoniyatlarini chuqur o'rganmay yoxud tahlil qilmay turib, shaxs taraqqiyoti mushtarakligini va uning ijtimoiy maqsadlar mutanosibligiga mos tarbiya yo'nalishlarini belgilab bo'lmaydi. Mazkur tadqiqot ishida munosabat motivatsiyasi tushunchasini asoslashga qaratilgan nazariy-ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlar tahlilini bayon qilish maqsad qilib quyildi. Qolaversa, bu muammoning qo'yilishi o'quv faolligiga munosabat motivatsiyasi bilan bog'liq nazariy tushunchalarga ma'lum darajada bo'lsa-da, oydinlik kiritishi mumkin, deb o'ylaymiz. qo'yilgan ushbu vazifaning bajarilishi tadqiqotning birinchi bobida o'z ifodasini topgan. Zero, bizningcha, o'quv jarayoni va unga munosabat bir-biridan ajralgan, alohida narsa emas, balki, ular bir-birini to'ldirib turuvchi hamda yagona maqsadga yo'naltirilgan ijtimoiy psixologik jarayon hamdir. Shuning uchun bu jarayonni ijtimoiy

psixologik talablar asosida o'rganish vazifasining qo'yilishini ayni maqsadga muvofiq, bo'lgan birinchi asosdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov [2,41] tomonidan ilmiy asoslab berilgan kadrlar tayyorlash milliy modeli komil inson va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga etkazish bu jarayonda muhim o'rin tutuvchi ta'limni texnologiyalashtirish bilan uzviy bog'liqligini tasdiqlaydi. Binobarin, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da o'quv-tarbiyaviy jarayonni ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash – uni ro'yobga chiqarishning ikkinchi va uchinchi bosqichlari uchun muhim xarakterli xususiyat ekanligiga alohida urg'u berilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" asarida ilm-fanning jamiyat taraqqiyotiga ko'rsatuvchi ta'sir yuqori baholanib, quyidagi fikrlar bayon etiladi: "Umuman, men fanni ilg'or taraqqiyot, progress degan so'zlar bilan yonma-yon qabul qilaman. Fanning vazifasi kelajagimizning shakl-shamoyilini yaratib berish, ertangi kunimizning yo'nalishlarini, tabiiy qonuniyatlarini, uning qanday bo'lishini ko'rsatib berishdan iborat deb tushunaman. Odamlarga mustaqillikning afzalligini, mustaqil bo'lmagan millatning kelajagi yo'qligini, bu tabiiy bir qonuniyat ekanini isbotlab, tushuntirib berish kerak. Fan jamiyat taraqqiyotini olg'a siljituvchi kuch, vosita bo'lmog'i lozim" [3, 25]. Mazkur fikrlar jamiyat hayotining barcha sohalari rivojlanishini ta'minlashda ajdodlar tajribalariga tayanish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e'zozlash bilan birga ularning an'analariga sadoqatli bo'lish zarurligini anglatadi. Darhaqiqat, ajdodlarning ma'naviy merosini o'rganish va ularni boyitish yosh avlod ta'lim-tarbiyasini muayyan izchillikda tashkil etish va bu yo'lda samaradorlikka erishishni ta'minlaydi. Madaniy meros va milliy qadriyatlar g'oyalarini chuqur o'rganish, buyuk allomalarning shaxs va uning faolligi, faoliyati to'g'risidagi qarashlarini tahlil qilish va ulardan yoshlar ruxiy faolligini ta'minlashda foydalanish ta'lim –tarbiya ning sifati va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. E.G'oziev Sh.R.Baratov [28], M.G.Davletshin [38], I.V. Dubrovina [41; 102], O.Mamarsulova. D.Y.Maxmudova, Min Lyu Syao [80], M.Mo'minova [84], R.V.Ovcharova va boshqalarning ishlarida yosh davrlarining turli bosqichlarida shaxsning faolligini ijtimoiy munosabatlar tizimidagi ahamiyati, yoshlarning ijtimoiy faoligini oshirishda ularning ruxiy psixologik xususiyatlarining uziga xosligi, shuningdek, kasbiy malakalarini takomillashtirish masalalari pedagogik va psixologik nuqtai nazardan o'rganilgan. E.G'oziev, Sh.Azizovalarning ta'kidlashlaricha, "yoshlar faolligini oshirish va ularni ijtimoiy munosabatlar tizimidagi faoliyatini rivojlantirishda psixologik xizmatning maqsadi – shaxsning har tomonlama mukammal psixologik taraqqiyotini ta'minlovchi oqilona, zarur shart-sharoitlar, omillar, qulay vaziyat va muhit yaratishdan iboratdir".

Komil inson muammosi insoniyatning azaliy ezgu niyati bo'lib, ijtimoiy —tarixiy taraqqiyot davrining barcha bosqichlarida o'zining birlamchiligi, o'ta dolzarbligi bilan alohida

ijtimoiy, ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy ahamiyat kasb etib kelgan. Ma'naviy merosimiz bo'lmish "Avesto"dan boshlab komillik masalasi tadqiqot predmetiga aylangan va bu narsa to hozirgi davrgacha kishilik dunyosining serqirra olimlari, ma'rifatparvarlarini chuqur qiziqtirib kelgan hamda uning betakror nufuzi bundan keyin ham asrlar osha shaxslar aql — zakovatining markazidan puxta joy egallaganicha qolaveradi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, tabiat bilan jamiyat o'rtasida hukm surib turuvchi aloqalar va munosabatlarni amalga oshiruvchi, uning ne'matlarini tartibga keltirishda faol ishtirok etuvchi ongli mag'pyp zot hamda olamning sirlari, ajoyibotlarini tushunishga intiluvchi keng saviyali, yuksak darajaga erishuvchi, betakror komil inson masalasi har bir davr uchun o'ta ahamiyatli, qiymatli hisoblangan.

Shaxsning jamiyatda odamlar orasidagi xulqi va o'zini tutishi sabablarini o'rganish tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan narsa bo'lib, masalani yoritishning ikki jihati farqlanadi: **a)** ichki sabablar, ya'ni xatti-harakat egasining sub'ektiv psixologik xususiyatlari nazarda tutiladi (motivlar, ehtiyojlar, maqsadlar, mo'ljallar, istaklar, qiziqishlar va hokazolar); **b)** tashqi sabablar - faoliyatning tashqi shart-sharoitlari va holatlari. Ya'ni, bular ayni konkret holatlarni kelib chiqishiga sabab bo'ladigan tashqi stimullardir.

Shaxs xulq-atvorini ichkaridan, ichki psixologik sabablar tufayli boshqarish odatda shaxsiy dispozitsiyalar ham deb ataladi. Ular shaxs tomonidan anglanishi yoki anglanmasligi ham mumkin. Ya'ni, ba'zan shunday bo'ladiki, shaxs o'zi amalga oshirgan ishi yoki o'zidagi o'zgarishlarga nisbatan shakllangan munosabatning xaqiqiy sababini o'zi tushunib etmaydi, "Nega?" degan savolga "O'zim ham bilmay qoldim, bilmayman", deb javob beradi. Bu anglanmagan dispozitsiyalar yoki ustanovkalar deb ataladi. Agar shaxs biror kasbga ongli tarzda qiziqib, uning barcha sir-asrorlarini egallash uchun astoydil harakat qilsa, bunda vaziyat boshqacharoq bo'ladi, ya'ni, dispozitsiya anglangan, ongli hisoblanadi.

2.BOB.Yoshlar psixologiyasi.

2.1Yoshlarning psixologik xususiyatlari.

Yoshlik davri 23-28 yoshlardan iborat bo'lib, bu davrning o'ziga xos xususiyatlaridan biri ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida kamolga erishgan shaxs sifatida faol ishtirok qilish va ishlab chiqarishda mehnat faoliyatini amalga oshirishdan iboratdir. Yoshlarning mehnat faoliyati quyidagi uchta muhim belgisi bilan boshqa yosh davrlaridan farqlanadi:

1) mutaxassislikning mohiyatiga, ishlab chiqarish shart-sharoitiga va mehnat jamoasi aozolarining xususiyatiga moslashish - mehnat faoliyatining dastlabki yillari yoki jamoada o'z o'rnini topish va qadr-qimmatga erishish;

2) mutaxassis sifatida o'zini takomillashtirish uchun ijodiy izlanishni amalga oshirish yoki kasbkorlik mahoratini egallash;

3) mahorat sirlaridan foydalanish, tashabbus ko'rsatish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda ijtimoiy etuklikni namoyish qilish yoki mehnat faoliyatidagi barqaror ijod bosqichida bir tekis 10 yillab ishlab sifatli mahsulot yaratish namunasini ko'rsatish.

Yuqoridagi bosqichlar barcha kasb-kor egalariga xos bo'lsa-da, lekin ishlab chiqarishga ertaroq va kechroq kirib kelgan odamlar o'rtasida yosh jihatdan tafovut mavjud bo'ladi. Masalan, hunar-texnika bilim yurtini tamomlagan yigit-qizlar o'z mehnat faoliyatini oliy ma'lumotli yoshlardan oldin boshlaydilar, biroq ular ham mazkur bosqichlarni bosib o'tishlari shart.

Hozirgi mutaxassislarning ko'pchiligi o'quv yurtlaridagi nazariy bilimlar bilan amaliy ko'nikmalar o'rtasida uzilish mavjudligi sababli mustaqil faoliyatning dastlabki kunlaridan boshlab qator qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu qiyinchiliklar o'z mohiyatiga ko'ra uch xildir; ular:

a) ijtimoiy qiyinchiliklar: notanish muhiti shart-sharoitlari, shaxslararo munosabatlar, mehnat jamoasining saviyasi, undagi kishi-larning xarakter xislatlari, ishlab chiqarish jamoasining qadriyatlari, maonaviyati, anhanalari va hokazo;

b) bilim va bilishga oid qiyinchiliklar: maxsus o'quv yurtida olgan bilimlardagi uzilishlar, saviyaning cheklanganligi, ijodiy izlanish faoliyatining zaifligi, tashabbuskorlikning etishmasligi va boshqalar:

v) mutaxassislik bilan boliq o'ziga xos qiyinchiliklar; ishlab chiqarishning mohiyati, xususiyati, texnologiya, qurilmalar, asboblari, amaliy ko'nikmaning bo'shligi yoki ular bilan etarli darajada tanishmaganlik, kasbning iqtisodiy negizini to'la anglab etmaslik, xavfsizlik texnikasi mahsulot ishlab chiqarishning chizma-yoyilmasi va grafik irodasini taqqoslash murakkabligi, muammolar oldida lol qolish. Bu qiyinchiliklarni engish davrida insonning ruhiy holatlari, jarayonlari va xususiyatlarida miqdor hamda sifat o'zgarishlari ro'y beradi.

Psixofiziolog P. P. Lazarevning fikricha, eshitish, ko'rish, periferik va kinestetik sezgirlikning o'zgarishi 20 yoshdan boshlanadi. Bu ma'lumotni chet el psixologlari Raven, Pako kabilar yanada rivojlantirib aqliy va mantiqiy qobiliyatning mezoni 20 yosh deb hisoblaydilar.

B.G.Ananpev o'zining ilmiy-tadqiqotlarida yoshlik davrida yigit va qizlardagi o'zgarishlarni murakkab shaxs jihatlaridan umumiy ruhiy holat, verbal va nonverbal aqliy sodda jarayonlargacha, hatto shaxsiy xususiyatigacha bo'lgan holatlarni o'z ichiga qamrab olishini matematik usullarga asoslangan ilmiy ma'lumotlar va ularning chuqur sifat tahlili orqali ko'rsatib o'tadi.

Ko'zlarning farqlashdagi sezgirligi inson yoshiga qarab o'zgarishini tadqiq qilgan S.V.Kravkov sezgirlikning ortishi 25 yoshgacha davom etishini, barqarorlashuvi esa 25 yoshdan keyin ham davom qilishini tahkidlaydi. B.G.Ananpev laboratoriyasida olingan natijalar inson funktsional darajasining oshishi 23-27 yoshdagi yigit va qizlarda 44 foiz, funktsional holatining barqarorlashuvi 19,8 foiz, funktsional darajaning pasayishi 36,2 foizga tengdir. Bu ma'lumotlar kamolot bosqichining turli mikro davrlarida o'sish jihatlarining o'zaro munosabati har xil kechishini ko'rsatib turibdi.

Yoshlarning ijtimoiy hayotda qatnashuvini o'rgangan V.Shevchuk ijtimoiy faoliyatga kirishish eng yuqori cho'qqisi 25 yosh ekanini aniqlab, bu hol odamlarning 45,4 foizida bo'lishini ma'lum qiladi. Uning fikricha, qolgan yosh davrlarida insonning jamoatchilik faoliyati nisbatan juda kichik birlikni tashkil qiladi, hatto u 45 yoshda 3 foizga teng bo'ladi.

Kishilarda ko'rish maydoni chegarasi xususiyatini o'rgangan L.N.Kuleshova va M.D.Aleksandrovalar 18-35 yoshlardagi haydovchilarda uning uch xil: normadan ortiq 11 foiz, normada 47 foiz, qolganlarida etalon bo'yicha normadan kam bo'lishini ta'kidlaydilar.

23-28 yoshgacha davrda qator funktsiyalar darajasining o'zgarishi, takomillashuvi: ko'rish maydonining ko'lam, ko'z bilan masofani chamalash, fazoviy tasavvur, bilish darajalari; anglash, diqqat va idrokning yaxlitligi hamda o'zgarmasligining o'sishi boshqa faoliyat va ko'rish taosirchanligi, qisqa muddatli ko'rish xotirasi yoki mustahkamlanishi namoyon bo'ladi: 22-25 yoshlarda ikki xil omillar doirasi vujudga keladi va ular mnemologik majmuasidan iborat bo'ladi.

Yoshlik davrida yigit-qizlar kamolotiga uchta muhim psixologik mexanizm, ya'ni mehnat jamoasi, oila mikromuhiti va norasmiy ulfatlar ta'sir ko'rsatadi. Masalan, mehnat jamoasidagi psixologik iqlim, ma'naviyat olami, barqarormaslik, ijtimoiy ong, ijtimoiy qadriyatlar, muayyan an'analar va odatlar yangi a'zoning xarakterida ijobiy yoki salbiy o'zgarishni vujudga keltirishi mumkin. Mazkur ta'sir natijasida asta-sekin umuminsoniy fazilatlar tarkib topishi yoki muayyan shaxsiy nuqtai nazar yo'qolishi mumkin. Mehnat jamoasiga yangi qo'shilgan a'zo unda o'z o'rnini va qadr-qimmatini qaror toptirish uchun bir qator yon berishga, o'z maslagidan sal bo'lsada

chetlashishga majbur bo'ladi. Bu yo'l jamoadagi psixologik iqlimga moslashishi maqsadida ichki ruhiy ziddiyatlarga, murakkab kechinmalarga, unsiz tuyonga qarshi qo'yilgan qadam hisoblanadi. Shuning uchun yakka shaxs xarakterini shakllantiruvchi yoki uning mustahkam ichki rishtalarini emiruvchi omil mehnat jamoasidagi ijtimoiy fikrdir. Jamoaga bo'ysunish har bir a'zoning burchidir.

Ayrim hollarda ko'pchilikning tazyiqiga uchragan shaxsda printsiptiallik, adolatlilik singari hislar, shaxsiy nuqtai nazar bo'shashib qoladi, natijada unda ikkilanish tuyusi paydo bo'ladi. Yoshlik gashtini surayotgan yigit va qizlar ota-onasiga, buva-buvisiga, opa-singillariga, aka-ukalariga, turmush o'rtoiga, farzandlariga oqilona munosabatda, oila aozolarining har biri bilan to'g'ri muloqotda bo'lishi, muayyan qoidaga asoslangan muomala qilishi shart.

Inson uchun psixologik mexanizm rolini bajaruvchi yana bir omil ulfatlar davrasidir. Ulfatlar odatda shaxsiy mayli, qiziqishi, intilishi, orzu-istagi, maqsadi, qarashlari, yoshi va xulqi bir-biriga mos tengdoshlardan iboratdir. Ko'ngilchanlik, do'stlar rahyiga qarshi bormaslik tufayli yoshlar xarakterida o'zgarishlar yuzaga keladi. Yuksak hislar, barqaror ehtiyoq, ilmiy dunyoqarash, ichki kechinmalar, mustaqillik va tashabbuskorlik tuyulari poymol bo'ladi, yaoni «Do'sting uchun zahar yut» qabilida ish tutiladi. Natijada mashuliyatsizlik, yuzakilik, loqaydlik, ikkiyuzlamachilik, bevafoqlik singari illatlar tarkib topa boshlaydi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ulfatlar davrasida yangi fazilatlarini ishbiarmonlikni, amaliy ko'nikmalarni egallash imkoniyati ham bo'ladi. Shu boisdan ulfatchilikka faqat maishat nuqtai nazaridan yondashmay, uning mazkur imkoniyatlaridan foydalanishga ham harakat qilish ayni muddaodir.

Yoshlik davri insonning kuch-quvvatga, orzu-havasga, ijodiy rejalarga, izlash va izlanishlarga, aqliy imkoniyatlarga boy davridir. Kelajak taqdiri, mo'l-ko'lichiligi, farovonligi, qudrati, madaniyati - yoshlarga bolik, shuning uchun ularning istiqbol rejalari, yaratgan loyihalari, shakllanayotgan mahnaviy va ruhiy olami hech kimni befarq qoldirmasligi kerak.

Har bir shaxs o'ziga xos qaytarilmas dunyo. Dunyoda bir - biriga aynan o'hshash bo'lgan ikki kishini topish juda mushkul. Odam tashqi qiyofasi, bo'yi - basti bilan boshqa biror kimsaga o'xshashi mumkin, lekin fe'li, mijosi va shaxs sifatidagi xususiyatlari nuqtai nazaridan aynan bir xil insonlar bo'lmaydi. hattoki, olimlar bitta tuxumda rivojlangan egizaklarda ham juda ko'p jihatdan aynan o'hshashlikni qayd qilishgan, shaxsiy sifatlaridagi korrelyatsiyada esa ba'zi tafovutlar aniqlangan.

Shaxs - qaytarilmas, u o'z sifatleri va borligi bilan noyobdir. Ana shu qaytarilmaslik va noyoblikning asosida uning individual psixologik xususiyatlari majmui yotadi. Shu o'rinda biz yuqorida ta'rif bergan shaxs tushunchasi bilan yonma - yon ishlatiladigan yana ikki tushunchaga izoh berish o'rinli deb hisoblaymiz. Bu - "indivud" va "indivudallik" tushunchalaridir. "Indivud" tushunchasi umuman "odam" degan tushunchani to'ldirib, uning ijtimoiy va biologik mavjudot

sifatida mavjudligini tasdiqlaydi va uni bir tomondan, boshqa odamlardan farqlovchi belgi va xususiyatlarini o'z ichiga oladi, ikkinchi tomondan, o'ziga va o'ziga o'xshashlarga xos bo'lgan umumiy va xarakterli xususiyatlarni qamrab oladi. Demak, individ - insonga aloqadorlik faktini tasdiqlovchi ilmiy kategoriyadir.

“Individuallik” - yuqoridagi ikkala tushunchaga nisbatan torroq tushuncha bo'lib, u konkret odamni boshqa bir konkret odamdan farqlovchi barcha o'ziga xos xususiyatlar majmuini o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan shaxs tizimini tahlil qiladigan bo'lsak, shaxsning individualligiga uning qobiliyatlari, temperamenti, xarakteri, irodaviy sifatleri, emotsiyalari, xulqiga xos motivatsiya va ijtimoiy ustanovkalari kiradi. Aynan shu qayd etib o'tilgan kategoriyalar shaxsdagi individuallilikni ta'minlovchi kategoriyalardir. Uning ma'nosi shundaki, bo'yi, eni, yoshi, sochining rangi, ko'z qarashlari, barmoq xarakatlari va shunga o'xshash sifatleri bir xil bo'lgan insonlarni topish mumkin, lekin xarakteri, qobiliyatlari, temperamenti, faoliyat motivatsiyasi va boshqalarga aloqador sifatleri majmui bir xil bo'lgan odamni topib bo'lmaydi. Ular - individualdir.

Qobiliyatlar - shaxsdagi shunday individual, turg'un sifatlerki, ular odamning turli xil faoliyatdagi ko'rsatgichlari, yutuqlari va qiyinchiliklari sabablarini tushuntirib beradi.

Temperament - insonning turli vaziyatlarda narsa, qodisa, xolatlar va insonlarning xatti-xarakatlariga nisbatan reaksiyasini tushuntirib beruvchi xususiyatlari majmuidir.

Xarakter - shaxsning alohida insonlar va insonlar guruhi, o'z - o'ziga, vaziyatlar, narsalar va hodisalarga nisbatan munosabatlaridan orttiradigan sifatlerini o'z ichiga oladi.

Irodaviy sifatlar - har birimizning o'z oldimizga maqsad qo'yib, unga erishish yo'lidagi qiyinchiliklarni engishimizni ta'minlovchi ma'lum sifatlarimiz majmuini o'z ichiga oladi.

Emotsiyalar va motivatsiya esa atrofimizda sodir bo'layotgan xodisalar, bizni o'rab turgan odamlar va ularning xatti-qarakatlarini ruqan qanday qabul qilib, ularga bildiradigan qissiy munosabatlarimizni bildiruvchi sifatlarimiz bo'lib, ular ayni vaziyatlardagi real xolatlarimizdan va ularning ongimizda aks etishidan kelib chiqadi.

Ijtimoiy ustanovka - yuqoridagi barcha xususiyatlar kompleksiga ega insonning turli ijtimoiy vaziyatlardagi faoliyat va xarakatlarga ruxan hozirligi va munosabat bildirish uslubidan kelib chiqadigan chuqur ichki xolatidir.

Biz yuqorida sanab o'tgan individual psixologik xususiyatlarning ahamiyati katta. Ular bizning jamiyatdagi o'rnimiz, obro' - e'tiborimiz, ishdagi va o'qishdagi yutuqlarimiz, inson sifatidagi qiyofamizni, kim ekanligimizni, kerak bo'lsa, o'zligimizni belgilaydi. Kim bilan qaerda uchrashmaylik, o'sha insonning bugungi xolati, kayfiyati, bizga va biz bildirayotgan fikrlarga munosabati, hamkorlikda ishlash tilak - istaklariga doimo e'tibor beramiz va bu masala biz uchun muhim bo'ladi. Huddi shunday suhbatdosh ham suhbatning boshidanoq, bizni o'rgana boshlaydi. Chunki agar suhbatdoshlar bir - birlarini bilsalar birgalikdagi faoliyatni samarali tashkil etish va

undan foyda olish imkoniyati ko'proq bo'ladi. Shuning uchun ham ishdan ham, dam olishga otlangan chog'da ham, qaerda bo'lsa ham o'zimizga "qo'shni" tanlaganda uning inson sifatida qanday ekanligiga qiziqamiz. Agar suhbatdosh yoki sherik bizga tanish bo'lmasa, uni taniganlardan oldindan so'rab ham olamiz va bunda aynan uning nimaga qobilligi, fe'li, ishga, odamlarga munosabatini so'raymiz va xohlaymizki, u to'g'risida "Juda xushfe'l, odamgir ..."kabi tasniflarni eshitgimiz keladi. Biror erga ishga kirayotgan paytda ham rahbar albatta o'ziga yaqin odamlardan yangi xodimning xarakterini, qobiliyatini va muhim narsalarga munosabatini albatta so'raydi va shu asosda suhbatga tayyorlanadi.

Demak, individual sifatlar bizning ongli hayotimizning ajralmas qismi, idrokimiz, xotiramiz va fikrlarimiz yo'naltirilgan muhim predmet ekan. Chunki, aynan ular bizning turli faoliyatlarni amalga oshirish va ishlarni bajarishdagi individual uslubimizga bevosita aloqador. Kimdir juda chaqqon, tez ish qiladi, lekin sifatsiz. Kimdir juda yaxshi qoyilmaqom ish qiladi, lekin juda sekin, kimdir ishga yuzaki qarab, nomiga uni bajarsa, boshqa bir odam unga butun vujudi va e'tiqodi bilan munosabatda bo'lib, tinimsiz izlanadi va jamiyat uchun manfaat qidiradi.

2.2. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda irodaviy xususiyatlarning o'рни .

Bizningcha, taraqqiyotni yuzaga keltiruvchi asosiy omil — bu shaxslar bo'lib, ular biosfera va noosferaning insoniyat uchun noma'lum, yangi qirralarini ochish, fanni rivojlantirish, texnika va texnologiya ishlab-chiqarishga qodirdirlar.

Psixologiya fanida inson omili uzluksiz ravishda ta'kidlanib turilishiga qaramasdan, u taraqqiyotni harakatlantiruvchi kuchi ekanligi batamom tan olinmagan. Xuddi shu bois individuallik va umumiylik ("Biz" va "Men") ustuvor rol o'ynashi birlamchi voqelik sifatida talqin qilingan.

Bugungi kunda inson omili, komil inson psixologiyasining bosh maqsadiga aylanib, uning xususiyatlari, fazilatlar, xislatlari, xosiyatlari, sifatlari, ichki imkoniyatlari, iste'dod alomatlar qancha erta ro'yobga chiqarilsa, demak taraqqiyotni yuzaga keltiruvchi super shaxslarni shakllantirish shunchalik tezlashadi, Inson kamoloti quyidagi bosqichlardan iborat: murakkablik — odam — inson — shaxs — sub'ekt — komil inson. Inson komillik sari qancha tezkor harakat qilsa, u kamolotni ertaroq egallaydi, taraqqiyotni jadallashtirishga munosib hissa qo'shadi.

Shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy xulqi va o'zini qanday tutishi, egallagan mavqei ham sababsiz, o'z - o'zidan ro'y bermaydi. Faoliyatning amalga oshishi va shaxs xulq - atvorini tushuntirish uchun psixologiyada “*motiv*” va “*motivatsiya*” tushunchalari ishlatiladi. Inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot - faoliyat jarayonida uni faol tarzda o'zlashtirish jarayonidir. Ijtimoiylashuv - har bir shaxsning jamiyatga qo'shilishi, uning normalari, talablari, kutishlari va ta'sirini qabul qilgan xolda, har bir harakati va muomalasida uni ko'rsatishi, shu ijtimoiy tajribasi bilan o'z navbatida o'zgalarga ta'sirini o'tkaza olishi jarayonidir.

“Ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllanishiga olib keladi. O'zini qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo'lamiz. Ana shunday tetik ongli turmish kechirish jamiyat hayotining bosh mezoniga aylanadi. Shunda odam olomon bo'lib har lahzada serkaga ehtiyoj sezib emas, aksincha o'z aqli, o'z tafakkuri, o'z mehnati, o'z ma'suliyati bilan ongli tarzda ozod va xur fikrli bo'lib yashaydi.”

Aynan shaxs faolligini shakllanishida irodaviy sifatlarni o'рни muhimdir. Chunki inson kundalik faoliyatlarida faollikka xarakat kilar ekan u albatta istaydimi, istamaydimi turli qiyinchiliklarga uchraydi. Bu qiyinchiliklarni engishda o'zida kuch, matonatni tarkib toptirishi lozim. Irodaviy sifatlardan qat'iyatlilik ham insonning u yoki bu maqsadlarini amalga oshirishga muhim o'rin egallaydi. Kishi irodasining kuchi va qat'iyati xarakterning irodaga bog'liq bo'lgan qaysi xislatlarida ifodalansa, o'sha xislatlar eng yorqin xislatlardan hisoblanadi. Bu xislatlar har bir kishining xarakterida bir qadar namoyon bo'ladi. Ammo hamma kishilarni va har qanday odamni

irodasi kuchli, xarakteri qat'iy deb bo'lmaydi, balki bu sifatleri bilan boshqa kishilardan ajralib turgan odamlargina irodasi kuchli, xarakteri qat'iy deb ataladi.

Xorij psixologiyasida shaxsdagi qat'iyatlilikni irodaning boshqa sifatlardan bo'lmish qaysarlik bilan almashtirishadi. Ko'pgina psixologlar qat'iyatlilik va qaysarlik sifatlarini bir tushuncha sifatida e'tirof etadi. Bunga yaqqol misol sifatida "psixologiya lug'ati"da qat'iyatlilikka berilgan ta'rifni keltirib o'tish joiz. Unga ko'ra qat'iyatlilik – irodaviy sifatlardan biri bo'lib, qiyinchiliklar va to'siqlarga qaramasdan o'z maqsadi sari intilishga moyilligi mavjudligi bilan tavsiflanadi.

Jahon psixologiyasida inson xatti-harakatidagi qat'iyatlilik muhim ahamiyatga ega ekanligi allaqachon tan olingan. Jumladan Makdaugallning fikricha qat'iyatlilik inson xulq-atvorining aniq maqsadga yo'naltirilgan ob'ektiv sifatlaridan biridir. Qat'iyatlilik fenomenini jahon psixologiyasining yirik namoyondalaridan K.Levin (1922), Dj.Atkinson va G.Litvin (1960), R.Krutch (1934), D.Rayans (1939), A.Kremer (1942), N.Fizer (1962) va boshqalar tomonidan keng doirada tadqiq qilingan.

Irodani bu sifatini o'rganish shuni ko'rsatadiki, bu holat xorij psixologlari uchun motivatsiyani o'rganuvchi mustaqil yo'nalish sifatida yuzaga keladi. Shu bois qat'iyatlilik sekinlik bilan o'zida qaysarlik, sabr, barqarorlik, uzoqni ko'ra bilishlik kabi sifatleri bilan uyg'un namoyon bo'ladi. Lekin olib borilgan tadqiqotlarda ularni aynan bir xil emas, turlicha narsa ekanligini qo'rsatib o'tsalarida, bizning nuqtai nazarimizcha, qat'iyatlilik, qaysarlik, sabrlilik bu shaxsda irodani namoyon bo'lishi deb atashimiz mumkin.

Ko'p vaziyatlarda qat'iyatlilik fenomenini o'rganishda murakkab intellektual va echilishi qiyin masalalar, shuningdek ayrim hollarda test va jismoniy mashqlar yordamida amalga oshirilgan. Shunisi qiziqarliki, bir shaxsda o'tkazilgan turli qat'iyatlilikka doir testlarni natijalarini korrelatsion tahlil qilinganda farq ahamiyatsiz darajani tashkil qilgan.

Xorij psixologiyasida qat'iyatlilik borasida olib borilgan tadqiqotlarni 3 yo'nalishga ajratgan. Birinchi yo'nalish tarafdorlari qat'iyatlilik inson xulq-atvorining muhim belgisi, harakterning xususiyatlaridan biri sifatida o'rganiladi. Ushbu nazariya tarafdorlarining fikriga ko'ra vaziyat bilan bog'liq omillar inkor qilinadi, shu bilan bir qatorda ular shaxs xislatlari orqali yashirinadi deb hisoblanadilar. Ikkinchi yo'nalish tarafdorlari qat'iyatlilik sifatini o'zgaruvchanlik bilan bog'lab, ya'ni uni vujudga kelishi omad yoki omadsizlikning kelishiga bog'liqligi tadqiq qilingan. Shunga bog'liq ravishda agar inson uning erishgan yutuqlari "baxtli tasodifga" emas, balki uni o'ziga bog'liq deb hisoblashi natijasida shaxsda qat'iyatlilik yuqori darajada namoyon bo'ladi. Albatta bu jarayonda masalaning qiyin yoki osonligi ham muhim ahamiyatga egadir. Birinchi yondashuvga nisbatan ikkinchi yondashuvda qat'iyatlilik kuchli darajada namoyon bo'ladi. Uchinchi yo'nalish tarafdorlari qat'iyatlilikni motivatsiya muammoli tizimida ya'ni qat'iyatlilikni motivatsiyaga bog'liqligi jihatleri o'rganiladi. Dj .Atkenson va G. Litvinlarning fikriga qaraganda motivatsion

kuch masalani qat'iyatlilik bilan ijobiy hal qilishni ta'minlasa, omadsizlikdan qochish motivi esa salbiy holatida namoyon bo'ladi. Ixtiyoriy idora qilishning ontogenetik rivojlanishi haqida S.L.Rubinshteyn shunday yozadi: "Bolaning birinchi aniq bir ob'ektga yo'naltirilgan, qandaydir "muammoni" echishga qaratilgan fikriy faoliyati irodaviy aktning primitiv ko'rinishidir. Lekin irodaning bu primitiv ko'rinishdan murakkab shakldagi irodaviy harakatlar uchun hali ancha uzoqdir. Adabiyotlarda ta'kidlanishicha, iroda ilk bolalik (2-4yosh) davrida mustahkam bo'lmasdan, o'smirlik davriga kelib, u huddi aql singari yangi qirralarini namoyon qiladi. Aslida esa, irodaviy harakatlar insonda juda erta namoyon bo'la boshlaydi: xattoki 3yoshli bolaning harakatlarini barchasini instinktlar bilan bog'lash umuman noto'g'ridir. Haqiqatdan olganda, iroda ilk bolalik davridan rivojlanishni boshlaydi va uzoq davom etadi. Bu taraqqit jarayoning har bir bosqichida iroda o'zining alohida xususiyatlariga ega bo'ladi."

O'smirlarning irodaviy doirasi ancha qarama-qarshi bo'ladi. Bu davrga o'tishdagi jinsiy etilish tufayli neyrodinamik o'zgarishlar yuz beradi va bu o'z navbatida irodaviy sohaning ham o'zgarishiga olib keladi. Natijada, vazminlik va dadillik yanada barqaror bo'lib boradi va jasurlik rivojlana boshlaydi. Qaysarlik faqatgina qiziqarli ishlarda vujudga kelishi mumkin. intizomlilik susayadi, o'z "Men"i, shaxsiy fikr va nuqtai nazariga egalik huquqini tasdiqlash bilan bog'liq qaysarlik kuchayib boradi. Qo'zg'aluvchanlikning tormozlanishdan yuqoriroq bo'lishi o'smirning ta'qiqlovchi axloqiy sanksiyalarni qabul qilishida qiyinchiliklarni tug'diradi. Irodaviy aktlarda tashqi stimulyatsiyadan ichkiga o'tish holati kuzatiladi. Biroq bu mexanizm hali to'liq shakllanmagan bo'ladi.

Shunday qilib, shaxs kamolotining keying bosqichlarida irodaviy sifatlar taraqqiy etib boradi. Albatta buning uchun ijtimoiy muhit, shaxslararo munosabatlar va berilayotgan ta'lim-tarbiya muhim rol o'ynaydi.

2.3 Talabalarda odob –ahloq xususiyatlarini shakllantirishning psixologik jihatlarini.

Milliy istiqlol tufayli taraqqiyotning barcha sohalarida jadal rivojlanib borayotgan mamlakatimizda yosh avlodni jahon andozalari talablariga javob beradigan, fan-texnika yangiliklaridan xabardor, mustaqil fikrlay oladigan, hayotga dadillik bilan kirisha oladigan, tadbirkor, ma'naviy jihatdan barkamol qilib voyaga yetkazish dolzarb vazifalardan xisoblanadi.

O'zbekiston mustaqillikga erishgan dastlabki kundanoq talaba yoshlarni ma'naviy qadriyatlar ruxida tarbiyalash eng muhim vazifalardan bo'lib qoldi. Chunki, davlatning asosini ma'naviyat tashkil etadi, ma'naviyatiga e'tibor bermagan davlatning kelajagi ham bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov "Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevoridir" nomli ma'ruzasida ta'kidlaganidek "Bizning respublikamizda o'zimizning ma'naviy qadriyatlarimizni, ta'limning milliy tizimini takomillashtirish hamda uning milliy asoslarini mustahkamlashga alohida e'tibor berilmoqda". (Islom Karimov. Barkamol avlod orzusi T., «Sharq» 1999 y). Darhaqiqat, bugungi kunda yoshlarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashning ahamiyati kattadir. Chunki talabalarning bilimini, aqliy va ahloqiy holatlarini shakllantirish, nazorat qilish va baholash davlat miqyosida amalga oshirilmoqda. Shuni aytish kerakki, insonning ma'naviyati uning ruxiy xolati, ahloqi, odobi, hulqi, madaniyati, psixologik xususiyatlarini shakllanish darajasidan tashkil topadi. Ahloq esa ularning individual psixologik xususiyatlari rivojlanishi, aqliy, huquqiy, diniy, iqtisodiy va siyosiy bilimlar zahirida shakllanadi. Mazkur bilimlar o'z navbatida inson ahloqiy sifatlarining kamol topib, boyib borishiga olib keladi, ruxan sog'lomlashtiri imkonini beradi. Demak, ahloq insonning ijobiy psixologik sifatlarini majmuidir ham.

Chinakam ma'rifatli odam milliy qadriyatlarni, o'zini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatiga o'ziga munosib, obro'li o'rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin. Zamonaviy kadrlar oldiga qo'yiladigan eng muhim vazifalardan biri- malakali mutaxassis sifatida o'zligini o'z qobiliyatlari, individualligi, shaxsiy fazilat hamda xislatlarini bilgan tarzda atrofdagilar mehnatini oqilona tashkil etish va ijtimoiy foydali mehnatning boshqa sohalarida iqtidorli kasb sohibi sifatida faoliyat ko'rsatishdir.

Odamning shaxs sifatida shakllanishi kamolot darajasi odob, ahloq, madaniyat, ma'naviyat elementlarining unda qanchalik mujassamlashgani bilan belgilanadi. Odob bu har bir insonning jamoa bilan bo'lgan muloqotiga hamda yurish-turishida o'zini tuta bilishini ko'rsatadi. Ahloq jamiyatda qabul qilingan, jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan hulq odob normalari majmuidir. Madaniyat-jamiyatning va unda yashovchi fuqarolarning faoliyati jarayonida to'plangan barcha ijobiy, aqliy yutuqlar majmuasi. Ma'naviyat-inson ongini aks ettiruvchi barcha ijobiy, intellektual fazilatlar majmuasidir. Aqliy kamolotga erishish irodaviy hatti-harakatlar, uzluksiz faollik, fidoyilik, bilimga chanqoqlik kabilarning bosqichma-bosqich, asta-sekinlik bilan amalga oshadigan jarayondir.

Mustaqil fikrlash bu fahmlash, anglash, fikr yuritishdan boshlanadi. Anglash biror-bir g'oyani tub mazmuniga tushunib yetish. Mushohada - shu g'oyani mantiqan talqin qilish. Tafakkur – inson ongidagi mavjud ilmiy va hayotiy bilimlar majmualaridan keragini saralab olish va amaliyotda qo'llash. Yuqorida sanab o'tilgan yo'nalishlar asosida talaba yoshlarning hulq madaniyatini shakllantirish muhimdir. Chunki, talaba ana shu ma'naviy muhitda o'z faoliyatini amalga oshiradi, o'zligini anglaydi. Ma'naviy bilimi bilan muloqatga kirishadi. Shuning uchun talaba yoshlarniig hulq madaniyatini shakllantirish samaradorligini ta'minlash ma'naviy muhitga bog'liqdir. Talaba yoshlarning hulq madaniyati, ma'naviy harakatlarining samarasi o'qituvchi va talabaning o'z faoliyatlariga bo'lgan munosabatlari bilan belgilanadi. Shuning uchun ham o'qituvchi ma'naviy merosning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o'rganishi, amaliy faoliyatda ularga tayanishi shaxsning hulq madaniyatini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega. Bunday yondashuv ta'lim-tarbiya jarayonining ishtirokchilaridan o'qituvchi-talabalardan ijodkorlikni talab qiladi. O'qituvchining ijodkorligi talabaning ijodkorligini uyg'otadi. Ular o'z talabalarini vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash bilan birga ularning qalbida olijanob fazilatlarni qaror toptiradilar. Shunday ekan, o'qituvchilarning pedagogik faoliyatida shaxsiy faoliyat tizimini ishlab chiqish muhimdir. U samarali mehnat natijasida isbot va dalillar orqali talabalar qalbiga ko'chadi. Ularning tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatadi. Shu bois ularning niyati talabalarni mustaqil yurt quruvchilari, muxandislari, ilmu ma'rifat fidoiylari safida ko'rishdir.

O'qituvchi ijodkorligi natijasida talaba yoshlar ajdodlar tarixi, adabiyoti, san'ati, an'analari, va urf-odatlar haqida chuqur bilim oladi. Talabalarning ma'naviy merosga bo'lgan qiziqishi oshadi. Dars jarayonida samimiy, sog'lom ma'naviy muhit yaratiladi, Ma'naviy meros manbaalaridan samarali foydalanish natijasida talabalarning hulq madaniyati kamol topadi. Talaba yoshlarning hulq madaniyatni shakllantirish, birinchidan, dars jarayonining muvaffaqiyatli bo'lishiga, ikkinchidan ta'lim mazmuniga va o'qituvchi-talaba hamkorlik faoliyatiga bog'liq. Hamkorlikdagi faoliyat ijodkorlikni, mas'uliyatni, faollikni talab qiladi. Bunda: har bir darsdan o'qituvchi maqsadni aniq ko'ra bilishi, amalga oshiriladigan vazifalarni to'g'ri belgilab olishi lozim; dars jarayonidagi bilimlar mazmunining ilmiyligi, izchilligi va tarbiyaviy xarakteri, qiziqarliligi talabalarda ta'lim va tarbiyaviy tomondan o'rganiladigan bilimga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi. Ularning bilimni kengaytirish yuksak hulqli bo'lishdek ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Talabalarning ma'naviy sifatlarini shakllantirishda ularga o'tmish, adabiyot, tarix, milliy urf-odatlar, an'analar haqida bilim berish o'qituvchidan doimo faollik bilan munosabatda bo'lishni talab qiladi. Talabaning ma'naviy ehtiyojini qondirish, qiziqishini o'stirish mustaqil ishlar, har xil ijodiy ishlar orqali amalga oshiriladi.

Ma'lumki, shaxs barcha ijtimoiy munosabatlarning majmuasidir, Shu sababli uning hayotda mavjud ko'p qirraligidan foydalana bilish lozim. hamma davrlarda o'qituvchi shaxsiyati qanchalik

erkin va o'ziga xos bo'ladigan talabalarga ta'siri shunchalik kuchli, mehnatining samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi deb hisoblangan. O'qituvchining haqiqiy munosabatlari tizimiga kiradigan shaxsi hamisha uning faoliyatida muhim o'rin tutishi kerak. Chunki talabalarning ma'naviy dunyosini boyitish o'qituvchining munosabatiga, muloqatiga bog'liq. Talabalarning ma'naviy boyligi o'qituvchining haqiqiy munosabatlariga bog'liqdir. Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, talabalarning ijtimoiy muxit ta'siridagi ma'naviy ehtiyojini qondirish psixologik himoyalash asosida shakllanadi.

2.4. Barkamol shaxs psixik holatlari va ularni tushuntirish vositalari.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning ruhiy xolatini barqaror kayfiyatini vujudga keltirish-bilish faolligining negizi xisoblanadi. Shuning uchun xam o'quvchi ruhiy xolatlarini o'rganish, ularda o'ziga xos xususiyatlarning namoyon bo'lishi va bilish faoliyatining xar xil ko'rinishlariga ta'sirini aniqlash muxim ahamiyatga ega. Ruhiy xolatning sifat xususiyatlari xilma-xil bo'lib, ular quvonch, qayg'u, tekislik, ruhiy ko'tarinkilik yoki tashvish, sarosimalik, bezovtalik kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Psixologiyada o'quvchilarning ruhiy xolatini ilmiy asoslash orqali uning yo'nalishlari aniqlangan Jumladan:

- Gnostik: xavaskorlik, sinchkovlik, xayratlanish, ajablanish, taajjublanish, ikkilanish, gangish, xayolparastlanish, qiziqish, diqqat e'tiborlilik.
- Emotsional: shodlik, xafalik, g'amginlik, nafrat, alam, g'azab, qoniqish, jur'atsizlik, qo'rquv, daxshat, intilish, ishqibozlik, affekt.
- Irodaviy: faollik, qat'iylik, qat'iyatsizlilik, dadillik, dadilsizlik, vazminlik, yengillik, xotirjamlik.
- Mexnat psixik xolatlari: tayyorlik, tayyor emaslik, ilxom, ruxlanganlik, g'ayratlilik, lanjlik, loqaydlilik, ishchanlik, maxmadonachilik, charchoqlik, chidam, chidamsizlik.
- O'quv psixik xolatlari: xayajonli, ezilganlik, tormozlanganlik, berilganlik, xayolparishonlik, diqqat-e'tiborsizlik, e'tiborlilik, qiziqish, befarqlik.
- Sport psixik xolatlari: shaylik, bo'shashganlik, zo'riqish, xarakatchanlik, tanglik, dadillik, dadilsizlik, tetiklik, loqaydlik, maqsadga intilganlik, mas'uliyatlilik.
- Optimal psixik xolatlar.
- Stress xolatlar.
- Depressiv psixik xolatlar.
- Suggestiv (ishontirilganlik) xolatlar:
 - a) geterasuggestiv,
 - b) autosuggestiv,
- Didaktogen (nevroz) psixik xolatlar.

Ma'lumki, turli yoshdagi o'quvchilar ruxiy xolatlarini diagnostika qilish muammosi dolzarb muammolardan hisoblanadi. Buning asosiy sababi egallangan bilimlar ko'lamining kengayganligi, inson hayoti va faoliyatining barcha sohalaridagi axborotlarning ko'payib borayotganligidir. Xozirgi paytda turli diagnostik metodikalar yordamida ruxiy xolatlarni o'rganish imkoiyatlari yaratilgan. Bunga asosa qilib, N.P.Kaskoning ko'pgina laboratoriyalarda sinalgan va moslashtirilgan so'rovnomasi, Ayzenkning shaxs so'rovnomasi, J.Teylor so'rovnomalari yordamida ruxiy xolatlarning shakllanishi va rivojlanishini o'rganish imkoniyatlari mavjudligini e'tirof etish mumkin. Ularning qo'llanilishi katta matematik ishlov talab qilishi tufayli sermashaqqat jarayondir. Ayniqsa, gurux bilan ish olib borganda, ushbu so'rovnomalar ko'p vaqtni talab etadi xamda natijalarni qayta ishlashni tezkor amalga oshirishning imkoniyati yo'q.

O'quvchilarning ruxiy xolatini o'rganishda Qozon tibbiyot instituti xodimlari tomonidan tuzilgan va professor I.Ye.Shvars tomonidan pedagogik –psixologik maqsadlarga muvofiqlashtirilgan so'rovnomaning qo'llash maqsadga muvofiq. Mazkur metodika muallif tomonidan qayta ishlanib, maxalliy muxitga moslashtirilgandir. Bu metodik yordamida o'quvchilarning bezovtalik, depressiya va asteniya xolatlarini o'rganish mumkin.

“Bezovtalik. Depressiya, Asteniya” (“BDA”) metodikasi bilan ishlash tartibi quyidagicha: “BDA” so'roqnomasi 30 savoldan iborat bo'lib, ular 3 guruxga (shkalaga) bo'linadi..

Bezovtalik shkalasi: So'rovnomaning shu gurux savollarida shaxsning o'z xarakatlaridan parokandalik, tashvishlanish ustuvorligi, shaxslararo munosabatda, dars jarayonida, savollarga javob berish va yakuniy nazorat vaqtida ishonchsizlik, beqarorlik kabi ruxiy xolatlarning belgilari o'z aksini topgan. 10 ta savol ishlab chiqiladi va bo'lar tashvish va bezovtalanish xolatlari alomatlarini izoxlaydi.

Depressiya shkalasi: Ushbu shkalaga taalluqli savollar shaxsda kayfiyatning tushishi, atrofdagilar bilan muomala qilishning cheklanishi, qiziqishning pasayishi, g'amginlik tuyg'usi, ishchanlik qobiliyatidagi sarosimalik, frustratsiya, pessimizm, qaltislik tavsif belgilarini mujassamlashtirgan. Depressiv xolatlarni izoxlovchi 10 ta savol ishlab chiqiladi. Ishchanlik qobiliyatining pasayishi, tez toliqish, serzardalik, serjaxllik, xissiy betayinlik, diqqatning buzilishi kabi belgilar o'z aksini topgan. Shu xolatlarni izoxlovchi so'rovnomadagi 10 ta savoldan iborat topshiriqlar ishlab chiqiladi.

Mazkur shkalalarning alohida ajratilishi o'quvchilar ruxiy xolatlarining o'ziga xos sifatlarini baholashda differensial yondashishga imkon beradi. Bu jarayon o'quvchi mustaqil fikrlash jarayoniga ham ta'sir etadi. Ya'ni mustaqil fikrini ayta olmaslik, hayajonlanish, o'ziga kuchli ta'sir etish, qo'rqish(fobiya) kabi xolatlarning vujudga kelishiga sharoit yaratib beradi. Bunida o'z mustaqil fikriga ega bo'lmaganlar bilan ishlashda:

- Ularning negativ fikrlash tarzining sxemasini o'zgartirish

- O'qituvchining tushuntirish uslublarini, tarbiya metodlarini o'zgartirish
- o'quvchi-talabanning o'z-o'zini idrok qilishini, o'ziga bo'lgan bahosini o'zgartirish
- o'quvchi ijobiy tajriba orttirishi uchun sharoit yaratish
- ta'lim jarayonining o'zida joriy etilgan tartiblarda byurokrtiyani minimallashtirilishiga erishish kabi ta'sir mexanizmlari ishlab chiqiladi.

Psixologik himoya mexanizmlari:

- ochiq his-kechinmalarni bosish, ko'rsatmaslikka urinish;
- rad etish, ya'ni noma'qul ma'lumotni ochiq rad etish, qo'shilmaslik;
- proeksiya – o'zidagi hissiyot va kechinmalarni tashqi ob'ektlarga ko'chirish orqali paydo bo'lgan xolatning sabablarini tashqaridan qidirishga moyillik;
- identifikatsiya – o'zini axborot egasiga o'xshatish, uning o'rniga o'zini qo'yish orqali qadriyatlarni rad etish yoki tanqidsiz o'zlashtirish;
- regressiya – ilgari hayotida, masalan, yoshligida bo'lib o'tgan qaysidir voqelarga qaytish, ularning yaxshi va ma'qullarini yana xotirada tiklash va xulqda qaytarish orqali o'zida psixologik himoya yoki oqlovni tashkil etish;
- yolg'izlanish-jamiyatdan o'zini olib qochish, o'zidagi o'zgarishlarni boshqalarga bildirmaslikka intilish, ayrim talabalar o'qishga bormay qo'yadilar;
- ratsionalizatsiya – mulohaza va fikr yuritish orqali o'zida himoya instinktlarini paydo etish;
- konversiya- muloqotdagi qandaydir to'siqlar yoki barerlarni olib tashlash uchun kutilmagan usullarni qo'llash, masalan, xavotirli informatsiyani yumoristik bilan almashtirish yo'li.

Yuqoridagi jarayonlar shaxsni ruxiy xolatlarini ta'sirlanishi asosida ro'y beradigan xulq ko'rinishlari uning turli qarashlari va yo'nalishlarini belgilab berishi mumkin. Albatta bu holatlar shaxs psixik taraqqiyotida ijtimoiy ta'sirlarning darajalarini aks etishi va uni ifodalanishini o'zida namoyon etib boradi. Ya'ni ijobiy xarakterdagi ijtimoiy ta'sir orqali shaxsning ijobiy psixologik xususiyatlari rivojlansa, salbiy xarakterdagi ijtimoiy ta'sirlardan esa shaxsning agressiv, salbiy psixologik xususiyatlari rivojlanadi.

Bugungi kunda barkamol shaxsni shakllantirish va uni psixologik xususiyatlaridagi

- agressiv xulq ko'rinishlarini korreksiya qilishning umumiy modeli psixologiya tizimida ishlab chiqilgan Ya'ni:
- ijtimoiy me'yorlarni anglay olish uquvini xosil qilish
- ehtiyoj va imkoniyatlarni to'g'ri baholay olish ko'nikmalarini shakllantirish.
- jamiyatdagi qoidalarni, kutishlarni shaxs ongiga singdirish, kompromistik xususiyatlarni shakllantirish,
- ijtimoiy ijobiy ustanovkalar haqida bilish saviyasini shakllantirish,

- hayotdagi qrama qarshiliklarni to'g'ri tushuntira olish,
- O'zini –o'zi va boshqalarni anglash xususiyatini shakllantirish, favqulotda vaziyatlarda to'g'ri qaror qabo'l qilish,
- muammoli vaziyatlarga to'g'ri baho berish va adekvat yechimini topa bildish ko'nikmasini shakllantirish,
- empatiya , alturizm xususiyatlarini rivojlantirish.

Bu model ta'lim tarbiyani modellashtirish va tizimli olim olib borishda, barkamol shaxs taraqqiyotini ta'minlashda muxim ahamiyatga ega.

Demak jamiyat taraqqiyotida shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini rivojlantirish va barkamol shaxsni tarbiyalashda uning riuxiy xolatlarini va ualrga ta'sir etuvchi ijtimoiypsixologik jarayonlarga e'tibor berish maqsadga muvofiq ekan.


3.BOB. Ijtimoiy faollikning shakllantirishni amaliy asoslari.

3.1 Shaxsiy xususiyatlarni o'rganish usullarining psixologik taxlili.

Shaxsning har tomonlama rivojlanishi bitta maqsadga ega: aqliy, ruhiy va estetik tarbiyani o'zaro bog'lashdir. Ushbu o'zaro aloqa olimlar ma'naviy tomonlarni shakllantirish mexanizmining birligi deb, ataganlar. Bu mexanizm birligi asosida timsol mavjud. Timsolning rivojlanishida tabiiy qobiliyatlar va tashqi dunyoning taassurotlari asosiy rol o'ynaydi. Bu timsolning shakllanishi ikkita sharoitdir, bilish tomonidan timsol vaqti-vaqti bilan aniq ravshan bo'ladi, iroda tomonidan esa, u hech qachon to'liq, ravshan darajaga ega emas.

Gilfordning "Sotsial intellekt" testi

1- «Yakunlangan hikoya» subtesti rasmlari



“Qarama –qarshi predmetlarni izlash”

Qandaydir predmet, masalan, “uy” aytiladi. Shu predmetlardan iloji boricha ko‘proq aytiladi. Shu bilan birga predmetning turli xil belgalarga e’tibor beriladi va guruhlar bo‘yicha qanday sistemalashtirilayotganligiga qaraladi. Masalan,”saroy” so‘zini olaylik.(U “uy”ga hajmi jihatdan qarama-qarshi). “Vokzal” (o‘ziniki va o‘zganiki). “Dala” (ochiq va yopiq fazo) va x.k. Kimda –kim qarama-qarshi predmetlardan qancha ko‘p aytsa, o‘sha yutadi. Shu bilan birga javoblarni tushuntirib berish kerak. Topshiriq predmetlarni qiyoslashga, yangi xususiyatlarni topishga qaratilgan.

10 mashq: “Bog‘lovchi zanjirlarni izlash”

Ikkita predmet, masalan, “ketmon” va “avtomobil” soʻzlari berilgan. Birinchi predmetdan ikkinchi predmetga oʻtishda “bogʻlovchi koʻpri” rolini bajaruvchi predmetning nomini ayting. Ikkala predmet oʻrtasidagi predmet ularni mantiqan bogʻlash zarur. Masalan yuqoridagi misolda “ekskovator” ikkalasiga ham aloqador. (“Ketmon”ga funksiyasi boʻyicha, “avtomobil”ga transport vositaligi). Bu oʻyinda oʻrtadagi zanjir-predmet aniq tushuntirib berilishi, asoslanishi talab qilinadi. Kimda-kim eng koʻp asoslangan “zanjir”larni topsa oʻsha gʻolib sanaladi.

11 mashq: “Ortiqcha soʻzni olib tashlash”.

Istalgan uchta soʻz olinadi, masalan, “it” “pomidor”, “quyosh”. Qandaydir maʼnoda bir-biriga oʻxshash boʻlgan soʻzlar qidirilib, mazkur maʼno boʻyicha “ortiqcha” hisoblangan soʻz olib tashlanadi. Kimda – kim qanchalik koʻp ortiqcha soʻzlarni topsa, oʻsha gʻolib boʻladi. Shu bilan birga original, oʻziga hos belgilar boʻyicha klassifikatsiya qilish soʻraladi. Masalan, yuqoridagi soʻzlarda “it” ortiqcha soʻz. Chunki “pomidor” va “quyosh” dumaloq.

12 mashq: “Fikrni oʻzga soʻzlar bilan ifodalash”

Murakkab boʻlmagan jumla olinadi, masalan, “bu yilgi yoz juda issiq boʻladi” Shu fikrni bir qancha variantda oʻzga soʻzlar bilan ifodalash talab qalinadi. Shu bilan birga mazkur soʻzlar oʻzga gaplarda qatnashmasligi kerak. Gapning maʼnosi oʻzgarib ketmasligini kuzatib turish kerak. Kimda-kim shunga oʻxshash boshqa variantlardan koʻproq aytsa, oʻsha gʻolib sanaladi.

Yuqorida keltirilgan mashqlar bolalarning ijodiy tafakkurini oʻstirish bilan, ularda nutqni rivojlantiradi.

Hozirgi zamon kishilarining oʻrtacha umr koʻrishi XX asr boshlaridagiga nisbatan qariyb bir yarim - yakki marta uzayganligi, etuklik davridagi erkak va ayollarning jismoniy baquvvatligi, maonaviyati va ruhiyati tetikligi ijtimoiy faollikni susaytirish haqida soʻz boʻlishi mumkin emasligini koʻrsatmoqda. Demak, ularning ishchanligi, aqliy qobiliyati, kasbiy mahorati, turmush tajribasi, ongining yuksakligi, mahnaviyatining boyligi, ruhiyatining sofliqi yangi zafar: mehnat quvonchlari sari dadil qadam tashlashga toʻla kafolat beradi

Shaxs va uning yoʻnalishi

Oʻz-oʻzini baxolash saviyasining miqdoriy ifodasini topish.

Kerakli jixoz: Shaxsning ayrim fazilatlarini xarakterlovchi soʻzlar: Saranjomlik, begʻamlik, sermuloxazalik, tajanglik, zexnli boʻlish, gʻururli boʻlish, qoʻrslik, xushchaqchaqlik, gʻamxoʻrlik, xasadgoʻlik, uyatchanlik, samimiylik, izlanuvchanlik, injiqlik, ishonuvchanlik, sustkashlik, xayolparastlik, vaximachi boʻlish, qasoskorlik, matonatilik, nafislik, bemalollik, asabiylik, jurʼatsizlik, oʻzini tuta bilmaslik, jozibadorlik, jizzakilik, extiyotkorlik, iltifotli boʻlish, pedantlik, xarakatchanlik, gumonsirashlik, printsiptallilik, shoironalik, koʻrolmaslik, ochiq

chexralik, shilqimlik, be'manilik, dadillik, vazminlik, nomuslilik, chidamlilik, qo'rqqoqlik, qiziquvchanlik, sabotlilik, ko'ngilchanlik, beparvolik, tashabbuskorlik.

Tajribaning bajarilishi.

O'z-o'zini baxolash saviyasini miqdoriy ifodasini topishda quyidagi metoddan foydalaniladi.

Sinaluvchi oldin yuqorida keltirilgan so'zlar orasidan o'zida mavjud bo'lgan xislatlarni ifodalovchi so'zlarni topadi. So'ngra o'zida qanday xislatlar bo'lishini xoxlovchi so'zlarni topadi.

Sinaluvchi berilgan so'zlarni diqqat bilan ko'rib chiqadi, so'ngra ularni ikki qatorga (xar qatorga 10—20 gacha so'z) yozib chiqadi. Birinchi qatorga o'zining idealiga mos, ikkinchi qatorga esa o'zida bo'lmasligini ifodalovchi so'zlarni yozadi. Ikkinchi qatorni shartli ravishda «anti ideal» deb atashi mumkin. Birinchi qatordagi so'zlar «ijobiy» ko'plikni, ikkinchi qatordagi so'zlar «salbiy» ko'plikni tashkil etadi. Ular mezon bo'lib xisoblanadilar.

So'ngra sinaluvchi «ijobiy» va «salbiy» ko'pliklar orasidan o'zida bor xislatlarga mos bo'lgan so'zlarni topadi. Bunda sinaluvchi mazkur xislatlarning qanday ifodalanganligi darajasini emas, balki uning o'zida bor yoki yo'qligini ko'zda tutmog'i lozim («Xa» yoki «Yo'q»).

Natijalar taxlili.

Sinaluvchi tanlab olgan fazilatlar soni xar bir ko'plik uchun sanalib chiqiladi va tegishli mezon qatoridagi umumiy so'zlar soniga taqsimlanadi. Agar ijobiy ko'plik bo'yicha koeffitsient birga yaqin bo'lsa, bu sinaluvchi o'zini ortiqcha baxolab yuborgani va o'ziga tanqidiy munosabatda bo'lmaganidir. Salbiy ko'plik bo'yicha koeffitsientning ijobiy ko'plik bo'yicha nolga yaqinligi o'ziga etarli baxo bermaganligidir.

Koeffitsientning 0,5 ga yaqin bo'lishi sinaluvchining o'ziga normal, o'rta baxo berishini ko'rsatadi. Shu bilan birga u o'zini ortiqcha baxolab yubormasdan, o'z-o'ziga tanqidiy yondashganligini ko'rsatadi

Topshiriq 1.

O'quvchilar ahloqiy mulohazalarining barqarorligini, yosh va individual xususiyatlarini katta yoshdagi kishilar va tengqurlari ishtirok etgan sharoitda eksperimental aniklash.

Zarur material. Vaziyatni yoki karama-qarshi mazmunni ifoda-lovchi hikoyalar.

1. Nazorat ishi o'linyapti. Sen ishni to'g'ri bajarding. O'rtog'ing materialni bilmas ekan, u seqdan ko'chirib olishnya iltimos qiladi. Shunda sen nima qalar eding?

2. Sen nazorat ishini bajarolmayapsan. O'rtog'ing o'zidan ko'chirib olishni taklif kilyapti. Shunda sen nima qilar eding?
3. Bir guruh o'rtoqlar darsni buzmoqchi bo'lib kelishib oldilar. Shunda sen nima qilar eding?
4. Tanaffus vaqtida bir o'rtog'ing deraza oynasini sindirib ko'ydi, Sen uni tasodifan ko'rib qolding. O'rtog'ing aybni bo'yniga olmoqchi emas. Sen aybdorning ismini o'kituvchingga aytarmiding?
5. O'qituvchi betob bo'lib maktabga kelolmadi. Parallel sinfdan boshqa o'qituvchi kirib topshiriq berdi. Lekin bolalar ishlash o'rniga, o'yin bilan mashg'ul bo'ldilar. Bu vaqtda sen nima qilgan bo'larding?
6. Sen yomon baho olding. Buning uchun ota-onang jazolashini bilasan. Olgan bahoyingni uydagilarga aytarmiding?

Topshiriqning bojarilishi. Har bir sinaluvchi (sinaluvchilar har xil yoshdagi o'quvchilar bo'lishi mumkin) uchta hikoya bilan tanishtiriladi. Hamma hikoyalar ahlokiy talablar jihatidan uxshash bo'lmog'i zarur, shuningdek, mazmunan bir oz farq qilishi mumkin.

1. Birinchi hikoya o'qilishida sinalayottan odamga uning javobini hech kimga bildirmasligi aytiladi.
 2. Ikkinchi hikoya o'qitilishida esa sinalayotgan kishiniig mulohazalari bir haftadan so'ng butun sinfga etkazilishi aytiladi;
 3. Uchinchi hikoya o'kntilayottanda esa javobi o'qituvchilarga va ota-onalarga bildirish aytiladi.
- Har bir hikoya bilan tanishib chiqilgandan so'ng eksperimentator kerak bo'lgan javob variantlarini aytadi. O'quvchi shulardan bittasining ostini chizib kuyib, "ha", "bo'lsa kerak" deydi. Masalan, birinchi hikoyani o'qib bo'lib, u quyidagi to'rt variantdan birining ostini chizib qo'ymoq kerak.

Hikoyaning nomi	<i>Ko'chirtiraman</i>		<i>Ko'chirtirmayman</i>	
	ha	bo'lsa kerak	ha	bo'lsa kerak

Bajarilgai topshiriq natijalarini ishlab chiqish. Barcha mulohazalar ikki guruxga bo'linadi: ya'ni axloqiy normalarga mos mulohaza (masalan "Nazorat ishini ko'chirishga bermayman" degan mulohaza) va ahlokiy normalarga noloyiq mulohaza ("Ko'chirishga beraman"). Yosh kategoriyalarga ko'ra, bu ikki guruh mulohazalarning mikdoriy solishtirilishi o'quvchilarning axloqiy mulohazalari qaysi tomonga qarab o'zgarayotganli gini aniqlashga yordam beradi, yani axloqiy normalar talabi (tomoni)gami yoki axloqiy normalarni buzish tomonigami.

Birinchi hikoya mulohaza bo'lishda mezon bo'lib qoladi. Ikkinchi va uchinchi hikoyalarga javob berishda chetga chiqiladigan bo'lsa, ya'ni kattalar *tazyiqida* yoki tengdoshlar tazyiqida bo'linsa, unda o'quvchilarning axloqiy mulohazalari etarli darajada qaror topmaganligini ko'ramiz.

Mulohaza xususiyatlari (qancha va qanday mulohazalar mustahkam yoki beqaror, nomustahkam bo'lib chiqdi) va siialayogganlarning xususiyatlari (qancha o'quvchi har bir yoshda mustahkam, barqaror yoki mustahkam emas bo'lib chiqdi) tahlil kilinadi

Tadqiqot o'tkazish va natijalarni psixologik taxlili.

Avvalo shuni aytish kerakki, mazkur usullar majmuasi o'quvchi shaxsi faoliyatidagi o'quv komponentlarining qay darajada tarkib topayotganligini aniqlashga xizmat qiladi. Chunki, har qanday faollik zahirida ma'lum omillar yotadi. Bizning nazrimizda esa, o'quv faolligi yoki o'quv faolligini namoyon qilishga bo'lgan munosabat motivatsiyasi zahirida o'quv komponentlarining (kognitiv, hissiy-irodaviy, baholash) ishtiroki muhim o'rin tutadi. Ya'ni tegishli darajadagi o'quv komponentini shakllantirish orqali o'quv faolligi haqida gapirish mumkin. Qolaversa, o'quvchi har qanday o'quv topshirig'ini bajarish jarayonida faol ishtirokchi bo'lishi uchun, dastavval undagi bilimlar, hissiy-irodaviy sifatlar, o'z-o'zini adekvat baholashga va rivojlantira borishga bo'lgan qat'iy harakatlar motivatsiyasi shakllangan bo'lishi darkor. Aks holda, undagi faollik shunchaki oddiy harakat sifatida baholanadi. Shularni hisobga olib kichik yoshdagi o'quvchilarda o'quv faolligini namoyon qila olishga xizmat qiluvchi munosabat motivatsiyasi zahiridagi o'quv komponentlarining shakllanganlik, darajalarini aniqlash rejalashtirildi.

Usulning maqsadi: O'quvchilarda o'quv faolligiga nisbatan faol ijobiy munosabatni ta'minlashga xizmat qiluvchi o'quv komponentlarini aniqlash. Chunki, har bir komponentning u yoki bu darajadagi miqdoriga qarab o'quv faolligiga nisbatan munosabat motivatsiyasi ko'rsatkichlari (yuqori, o'rta, quyi) haqida tegishli mulohazalarni yuritish mumkin. Jumladan, **kognitiv**, komponent ishtiroki, aksariyat hollarda o'quvchi faoliyatidagi tegishli bilimlarni egallash asosida tarkib topgan qiziqishlarning mavjudligi, har bir o'quv topshirig'ini chuqurroq idrok va tafakkur qilish orqali bajarishga intiluvchanlikning namoyon etilishi orqali belgilanadi.

Hissiy-irodaviy komponent ishtirokida esa har qanday o'quv topshirig'ini alohida ishtiyoq bilan bajarish va bu jarayonda barcha qiyinchiliklarni engib o'tishga intilish, qat'iylik, tashabbuskorlik va o'ziga xos irodaviy sifatlarni namoyon qilish, mas'uliyatni chuqur his etgan holda faoliyat ko'rsatish kabilar kiradi.

Baholash komponentining mavjudligi esa, o'quvchi shaxsidagi o'z-o'zini adekvat baholash, o'z-o'zini idora qilish, rivojlantirish, o'z imkoniyatlaridan unumli foydalanishga intilish, faoliyat va uning natijalariga adekvat baho berish kabi sifatlar orqali yaqqol ifodalanishi mumkin.

Demak, har bir respondent o'quv faoliyatidagi komponentlar ishtirokining qay darajada (yuqori, o'rta, quyi) tarkib topayotganligini tahlil qilish va shu asosda tegishli xulosalar chiqarish kabi holatlar usulning asosiy maqsad-mohiyatini anglatadi.

Usulni qo'llash tartibi: Usul asosan maxsus tuzilgan anketa savollari va unga berilgan javoblarni tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Chunonchi, o'quvchiga tanlash uchun 24 juftlikdan iborat o'quv topshiriqlari alternativ savolnoma tarzida taqdim etiladi. **Ya'ni, tavsiya** etilgan har bir topshiriqning bajarilishi o'quvchi faoliyati uchun xarakterli bo'lgan u yoki bu darajadagi munosabat

motivatsiyasi ko'rsatkichini belgilaydi. Masalan, "A" harfi orqali ko'rsatilgan vaziyatdagi holatlarda ko'proq ishtirok etish maylining mavjudligi (u yoki shu vaziyatning tanlanish) o'quv faolligiga nisbatan indifferent (yuzaki) munosabat motivatsiyasining ustunligidan dalolat bersa, "V" vaziyatdagi holatlarning tanlanishi esa o'quv faolligiga faol-ijobiy munosabat motivatsiyasi shakllanganligidan guvohlik beradi. Qisqacha qilib aytganda usulni qo'llash tartibi quyidagicha:

1. Maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan vaziyatlar ifoda etilgan alternativ, tarzda anketa savollarining mazmun-mohiyati bilan o'quvchilarni batafsil tanishtirish.
2. 24 ta juftlik vaziyatlarni o'qish va o'rganish uchun o'quvchilarga taqdim etish va ularning har bir vaziyatni to'liq tasavvur etishlari uchun qo'shimcha tushuntirishlar olib borish.
3. Har bir respondent har bir juftlik bo'yicha ikkala vaziyatni chuqur tasavvur qilib bo'lgan o'zi uchun ma'qul bo'lgan bittasini tanlaydi va belgilab qo'yadi. Shu tariqa 24 ta vaziyat batafsil o'rganiladi va 24 ta javob tanlanadi.
4. O'qituvchi javob varaqalarining terib oladi, uning haqqoniyligiga ishonch hosil qilgach, har bir ma'lumotni birlamchi qayta ishlash uchun kirishadi.

Usulning kaliti

№	Komponent savollar	Kognitiv	Hissiy-irodaviy	Baholash	
I	1,4,7,10,13,16,19,22,28	00000000			
II	2,5,8,11,14,17,20,23,		00000000		
III	3,6,9,12,15,18,21,24			00000000	

Demak, anketa savollarida qayd etilgan barcha javob variantlari o'quv komponentlari tizimi bo'yicha yuqoridagi tartibda belgilanadi. Ilgari ta'kidlanganidek, har bir alternativ savol raqamidagi "A" vaziyatning tanlanishi "0" ball bilan "B" vaziyatning tanlanishi esa "5" ball bilan belgilanadi. Jami 24 ta vaziyat uchun eng yuqori ball miqdori 120 ballni tashkil etadi. Shuningdek, har bir komponent uchun 8 ta vaziyat taklif etiladi. Ya'ni har bir komponent uchun eng yuqori ball miqdori jami-40 ballni tashkil etadi. Barcha komponentlar bo'yicha tanlangan "A" vaziyatlarga hech qanday ball qo'yilmaydi. Chunki, taqdim etilgan barcha "A" vaziyatlar tegishli komponentga asoslangan faol-ijobiy munosabat motivatsiyasining mavjud emasligiga, "B" vaziyatlarda esa faol-ijobiy munosabat motivatsiyasi ishtirokining mavjudligi munosabat motivatsiyasiga asoslanib tuzilgan.

Ma'lumotlarning qayta ishlanishi.

1. Yuqoridagi talablar asosida har bir respondent uchun xarakterli bo'lgan ballar miqdori aniqlanadi.
2. Aniqlangan ballar miqdori shartli tarzda qabul qilingan munosabat motivatsiyasi shakllari (faol-ijobiy, ijobiy, indifferent) bo'yicha joylashtiriladi.
3. Har bir ob'ekt respondentlaridan olingan ballar miqdori o'rtacha-umumiy ko'rsatkichlar majmuasiga birlashtiriladi. Shuningdek, o'rtacha umumiy foizlar miqdori ham belgilanadi.
4. Har bir sinf (2-sinf va 4-sinf) o'quvchilari uchun barcha ob'ektlar misolida xarakterli bo'lgan oraliq (diapazonlar) ko'rsatkichlari ham aniqlanib, umumiy xulosalar chiqariladi.
5. Barcha ma'lumotlar bo'yicha yig'ilgan matematik statistik natijalarga tayanib umumiy qonuniyatlar aniqlanadi.

Demak, yuqoridagilarning barchasi “o'quv faolligi komponentlari” (O'FK) metodikasi yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi bugungi faol-ijobiy motivatsiyasi ko'rsatkichlarining o'rtacha umumiy va qiyosiy-tipik miqdorlari haqida shuningdek, o'quv faolligini ta'minlashga xizmat qiluvchi “kognitiv”, “hissiy-irodaviy” va “baholash” komponentlarining nechog'lik ishtiroki haqida empirik ma'lumotlar yig'ish imkoniyati tug'ulganligidan dalolat beradi. Barcha empirik ma'lumotlar tahlili uchinchi bobda batafsil bayon etiladi.

“O'quv faolligi komponentlari” metodikasi bo'yicha alternativ vaziyatlar savolnomasi

“A” vaziyat		“B” vaziyat	
		I Kognitiv	
1	Shunchaki maktabga qatnashish. Do'stlar bilan, o'qituvchi bilan tanishish.	Yoki	Maktabga borib kelish uchun o'quv topshiriqlarini astoydil bajarishga harakat qilish.
2	Har kuni maktabga borib kelish menga zavq bag'ishlaydi	Yoki	Har kun maktabga borib kelish orqali barcha qiyinchiliklarni engib o'tish menga zavq bag'ishlaydi.
3	Yaxshi baho olish uchun o'qish kerak deb o'ylayman.	Yoki	O'z imkoniyatlarimni kengaytirish o'quv topshiriqlarni to'g'ri bajarish oralig'ni yaxshi baho olishni ma'qul ko'raman.
4	Maktabga borishdan maqsad do'stlar ortirishdir.	Yoki	Maktabga borishdan maqsad tegishli bilimlarga ega bo'lishdir.

5	Darslarda ishtirok etib yaxshi baholar olish.	Yoki	Darslarga ishtirok etib, har bir o'quv topshiriqlarini oxirigacha bajargandan so'ngina yaxshi baholar olish.
6	Darslarda shunchaki o'quv vazifalarini bajarish.	Yoki	Darslarda o'z imkoniyatlarimni rivojlantirish haqida ko'proq o'ylash.
7	Ona tili darslariga ishtirok etish.	Yoki	Ona tili darslariga oid bilimlarni egallash, qoidalarini bilish.
8	O'qish zarur bo'lganligi uchun darsga boraman.	Yoki	O'qish qiziqarli bo'lganligi uchun darsga boraman.
9	Kitoblarni o'qish uchun maktabga boraman.	Yoki	Maktabga borish, o'z imkoniyatlarimni sinab ko'rish uchun maktabga borish.
10	Darslarda ishtirok etish.	Yoki	Darslarda u yoki bu sohaga oid bilimlarni o'rganish.
11	Darsda juda oson echiladigan matematikadan o'quv topshiriqlarini bajarish.	Yoki	Darsda biroz qiyinroq bo'lgan o'quv topshiriqlarini bajarish.
12	Maktabda faqat o'qituvchi tomonidan ko'rsatib turilgan va o'qituvchi yordamida o'quv topshiriqlarini bajarish.	Yoki	Mustaqil topshiriqlarni bajarish uchun o'z kuchimni sinab ko'rish.
13	Matematika darsida misollarni doskadan ko'chirib olish.	Yoki	Matematika darsida har bir misolni echish usullarini o'rganish.
14	Matematika darsida faqat yozish bilan shug'ullanish.	Yoki	Matematika darsida ko'proq boshqotirmalarni echish, darsning oxirigacha barcha mustaqil topshiriqlarni echishga harakat qilish.
15	Darsda o'qituvchi o'quvchilarga baho qo'ymasa yaxshi bo'lardi.	Yoki	Darsda har bir o'quvchi o'z kuchini sinab ko'rish uchun astoydil harakat qilib ko'rsa yaxshi bo'lardi.
16	Darsda javoblari tayyorlab qo'yilgan misol va masalalarni ko'chirish bilan shug'ullanish.	Yoki	Darsda har bir misol va masalani echish uchun ko'proq qonun qoidalarini o'rganish bilan shug'ullanish.
17	Barcha o'quvchilar oddiygina o'quv	Yoki	Barcha o'quvchilar o'quv jarayonida

	vazifalarni qiynalmasdan bajarib xursand bo'lish.		mustaqillik, tashabbuskorlik qat'iylik xislatlarini namoyon qilish orqali quvonish.
18	Faqat "yaxshi" baho olish uchun o'qishga intilish.	Yoki	O'quv maqsadlarini qo'yib uning natijalari bo'yicha o'z imkoniyatlariga baho berish orqali o'qishni davom ettirish.
19	Darsda turli xil tabiiy materiallar (masalan, yog'och materiallari) bilan ishlash biror narsa tayyorlash.	Yoki	Turli xil tabiiy materiallar bilanishlash va ularni yangi xususiyatlari haqida chuqur tasavvurga ega bo'lish.
20	Darsda uncha qiyin bo'lmagan topshiriqlarni bajarib o'qituvchi maqtoviga sazovor bo'lish.	Yoki	Mustaqillikni va qat'iylikni talab qiluvchi topshiriqlarni astoydil oxirigacha bajarib bo'lgach o'qituvchi maqtoviga sazovor bo'lish.
21	O'tilgan mavzuni o'qib kelib gapirib berish orqali darsda yaxshi ishtirok etish.	Yoki	Darsda har bir mavzuni o'qish orqali har bir o'quvchi o'z imkoniyatlarini rivojlantirib borsa yaxshi bo'lardi.
22	Mehnat darsida yuk mashinasini yaxshi yasash uchun o'qituvchi hamma ishlarni aytib turadi va har bir o'quvchi faqat uning bevosita yordami bilan yuk mashinasi modelini yasaydi.	Yoki	Mehnat darsida yuk mashinasini yasash uchun, dastavval, eskizini chizish, asosiy detallar bilan tanishish, turli usullarni o'rganish va umumiy reja tuzib, so'ngra yuk mashinani yasashga kirishiladi.
23	Darsda ko'proq oddiy topshiriqlarni bajarish.	Yoki	Darsda ko'proq murkkab bo'lgan va ma'lum irodaviy kuch sarflashni talab qiladigan vazifalarni bajarish.
24	Darsda hamma bir xil topshiriqni bajarib uning natijalari esa muhokama qilishning shart emasligi.	Yoki	Darsda har kim alohida topshiriqni bajarib uning natijalari bilan qiziqishi va muhokama qilinishi.

Endi uchinchi yo'nalishga kiruvchi usullar majmuasining tafsilotlariga o'tamiz.

Bu usul asosan V.Smekal hamda M.Kucherlar tomonidan «Yo'naltiruvchi anketa» shaklida ishlab chiqilgan bo'lib, uning yangi variantidan foydalanildi. Mazkur usulga muvofiq anketa an'anaviy 27 ta savoldan emas, balki 30 ta savoldan iborat bo'lib, unda o'z-o'ziga, o'zgalarga va faoliyatga nisbatan yo'nalganlikka moyillik darajalari aniqlanadi. Mazkur metodikani qo'llash

tartibi ilmiy matbuotda keng miqyosda yoritilganligi sababli, u haqda batafsil to'xtalmaslikni lozim topdik. Ushbu metodni qo'llash orqali tadqiqotimiz maqsadiga mos quyidagi vazifalarni bajarishga harakat qildik:

- 1) o'quvchilarda o'quv faoliyati jarayoni va unga munosabat tizimining shakllanishi bilan bog'liq o'z-o'ziga, o'zgalarga, faoliyatga yo'nalganlikning o'zaro uyg'unligini aniqlash;
- 2) shaxs yo'nalganligi zahirida yotuvchi munosabat motivatsiyasi xususiyatlarini o'rganish;
- 3) shaxs yo'nalganligi o'quv faoliyatiga nisbatan faol-ijobiy, ijobiy, indifferent munosabatlarning namoyon etilishida ham muhim ahamiyat kasb etganligini aniqlash.
- 4) o'quv faoliyatiga nisbatan munosabatlar tizimi (motivatsiyasi) va dinamikasi ko'rsatkichlarini aniqlash va uning kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun xarakterli jihatlariga ijtimoiy psixologik baho berish.

Mazkur usul orqali olingan empirik ma'lumotlarning qayta ishlanishi, uning shaxs yo'nalganligi va o'quv jarayoniga munosabat tizimi o'rtasidagi uyg'unlikning o'quvchi shaxsi faoliyatida, faolligida va xulq-atvorida qay darajada shakllanayotganligiga baho berishi bilan ham qimmatlidir.

G.M.Andreeva tomonidan quyidagi 4 ta ilmiy yo'nalishning belgilanishi o'quvchi shaxsiga faol-ijobiy munosabatlarni keltirib chiqaruvchi ma'lum psixologik mezonlarni tadqiq qilish imkonini beradi:

1. Muvofiqlashtirish – sub'ektning o'z maqsadlariga erishish uchun xizmat qiluvchi attityudni (munosabatni) ob'ektga nisbatan yo'naltira olishi;
2. Bilish - u yoki bu ob'ektga nisbatan attityudning (munosabatning) soddalashtirilgan xulq-atvor ko'rsatmasini ta'minlay olishi.
3. Ifodalilik – shaxs o'z-o'zini idora qilishida attityud (munosabat) shaxs sifatida o'zini ifodalash uchun sub'ektning keskin tang holatlardan xalos qilish usuli sifatida namoyon eta olishi.
4. Himoya – attityudning (munosabatning) shaxs ichki ziddiyatlarini bartaraf etishga xizmat qilishi.

Bob bo'yicha xulosalar.

Demak, aytish mumkinki, munosabatning mazkur to'rtala vazifasi ham o'quv faoliyati jarayonida o'quvchi shaxsini faollikka undovchi mezonlardir. Chunki, faoliyat omillari, jumladan o'quv faolligi hamisha o'quvchi shaxsi ustanovkalariga hamohangdir. Bu hamohanglikni to'liq xis etgan holda, munosabatni yanada kengroq ko'lamda «ijtimoiy ustanovka» nomi bilan e'tirof etish qabul qilingan. Umuman, shaxsning u yoki bu faoliyatga yoki bu faoliyatga yoxud faollikka bo'lgan munosabat motivatsiyasini o'rganish borasida bugungi kunda turli xil munozarali qarashlar mavjud bo'lib, uning ortida har bir ilmiy tadqiqotchining o'z pozitsiyasi, ilmiy maqsadi, ilmiy g'oyalari, salohiyati va shaxsiy fikr-mulohazalari mujassamlashgandir. Ayni paytda, aytish joizki, munosabat

mezoni shaxs ijtimoiy taraqqiyotining, o'z-o'zini rivojlantirishning o'z ichki hissiy xayrixoxligining, bir so'z bilan aytganda shaxs "men"ligi namoyon qilishning muhim omili sifatida olimlar e'tiborini tortgan doimiy tadqiqotlar ob'ekti hamda sub'ektiga aylantirilgan.

UMUMIY XULOSA

Respublikamizdagi amalga oshirilayotgan qayta qurishdan asosiy maqsad va uning xarakatlantiruvchi kuchi inson, shaxsning har tomonlama rivojlanishi va farovonligi hisoblanadi. O'zbekiston taraqqiyot va islohotlarning o'ziga xos jahon hamjamiyati tomonidan takrorlanmas deb tan olingan yo'lni tanladi. Bugungi kunda inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskicha tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish, respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va xarakatlantiruvchi kuchidir

. Insonning bir kuni yo'qki, u maqsadsiz yashagan bo'lsa, Maqsadsiz hayot - besamar umrdir. Shuning uchun har bir insondan tortib, murakkab ijtimoiy hayotgacha orzu, ideal va aniq-ravshan maqsad bilan yashaydi. Agar alohida shaxs maksadi uning aql-idroki, turmush tarzi va salohiyatlari natijasi sifatida ko'zga tashlansa, jamiyat, mamlakat va millat maqsadi juda ko'p ijtimoiy, siyosiy, moddiy va ma'naviy jarayonlarni qamrab oladi. Jamiyat, mamlakat va millat maqsadi, ideali ana shu tariqa muayyan davrning taraqqiyot va istiqbol ko'zgusi bo'lib gavdalanadi.

Tadqiqotning natijalariga ko'ra quyidagi xulosalarga kelindi.

1. Shaxs psixologiyasida shaxsga xos bo'lgan ijtimoiy xulqiy odatlarni shakllantirish bilan bog'liq nazariy va amaliy tadqiqotlar natijasida ruxiy faollikni shaxsning xulq atvori va odatlar tushunchasi mazmuni va uni ishlab chiqishning asosiy yo'nalishlari aniqlandi va bu muammoni psixologik tayyorgarligiga nisbatan qo'llash shart-sharoitlari belgilandi.

2. O'rta umum ta'lim maktabining yuqori sinf o'quvchilarining ijtimoiy munosabatlarga kirishuvida ma'lum xulqiy odatlarni shakllantirishning asosiy yo'nalishi sifatida psixologik jarayonlarni faollashtirish (o'zini boshqarish, xarakter, temperament, kobiliyatlariga munosabat bildirish va x.k) o'quvchilik davridayoq rivojlanuvchi g'oyalarni amalga oshira borib, bo'lajak ota – onalar, tarbiyachilar yangicha fikrlash qobiliyatlarini uning tayyorgarligi va navbatdagi vazifalarni bajarishga yo'naltirilgan tizimi kerak

3. Tadqiqotning asosiy maqsadi bo'lajak ota –onalar, tarbiyachilar ijtimoiy xulqiy odatlarni shakllantirish darajasi bo'yicha tarbiya masalalarini, ularni hal etish shart sharoitlarini to'g'ri belgilashdan iborat.

Tadqiqotda psixologo –pedagogik nuqtai nazardan ijtimoiy xulqiy odatlarni shakllantirish darajasi o'ziga xosliklari, bunda turlicha ijtimoiy muhit (bolalar ijtimoiy birlashmalari, ijtimoiy aql institutlari, «Kamolot», «Kamalak» yoshlar ijtimoiy harakatlari va b.q.) ning moxiyati va ularning yo'nalishlari ko'rib chiqilib, bularning ijtimoiy xulqiy odatlarini shakllantirish maqsad va vazifalariga muvofiqligi nazariy –ilmiy jixatdan asoslandi.

4. Aynan shu jixat bo'lajak ota –ona, tarbiyachilarda ijtimoiy xulqiy odatlarni shakllantirish jarayonini ilmiy asoslangan va muloqotlar amaliyotida o'z tasdig'ini olgan mazmun va metodikada tashkil etishni ta'minlaydi. Bizning nazariy qarashlarimiz asosida psixologiya fanining metodik ta'minoti shartlari aniqlandi va bo'lajak ota – ona va

TAKLIF VA TAVSIYALAR

ilmiy tadqiqotlar jarayonida olingan nazariy va empirik ma'lumotlar quyidagi **tavsiyalarni** berishga imkon beradi:

bola xulq-atvorida ijobiy sifatlari shakllantirish uchun ota-onalar, maktab jamoatchiligi va max«alla hamkorligini tashkil etish;

-milliy an'analarimiz yoritilgan badiiy asarlarni mutolaa va tahlil qilish, ular orasida sahnaviy ko'rinishlar, turli viktorinalar, baxslarni tashkil etish (o'qituvchilar) ma'qul;

-qadimiy milliy obidalarimizga va muqaddas qadamjolarga sayohat qilish (o'qituvchilar, ota-onalar);

-o'quvchilarning uchrashuv va sayohatdan olgan taassurotlarini birgalikda muhokama qilish (o'qituvchilar, ota-onalar);

-dars davomida o'quvchining mustaqilligi, erkinligini, faolligini uzliksiz ravishda ta'minlash (o'qituvchilar);

-o'quvchilarning milliy qadriyatlar borasidagi o'z qarashlari bilan ommaviy axborot vositalarida qatnashib turishlarini (o'qituvchilar) yo'lga qo'yish;

-oilada amal qilinayotgan urf-odatlar va an'analarning nima uchun qo'llanilishi, milliy urf-odatlarni diniy urf-odatlaridan farqlay olishga erishish (ota-onalar) kabilar tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratishtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T.: “O’zbekiston”, 2005.-96 b.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod - O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, 1997.- 36 b.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod O’zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: «O’zbekiston» 1997.
4. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. –T.: «O’zbekiston» 2000.
5. Karimov I.A. O’zbekiston XXI asrga intilmoida. –T.: «O’zbekiston» 2001.
6. Aktivno’e metodo’ obucheniya pedagogov i rukovoditeley uchrejdeniy obrazovaniya. Teziso’ dokladov. –Perm, 1993.
7. Vozrastnaya i pedagogicheskaya psixologiya: Ucheb.posobie dlya institutov G’Pod red. M.V.Gomez i dr. –M., 1984. – 256 s.
8. Galperin P.Ya., Talo’zina N.F. Formirovanie znaniy i umeniy na osnove teorii po etapnogo usvoeniya umstvenno’x deystviy. – M.: 1968.
9. Davletshin M.G. Hozirgi zamon maktabining rivojlantiruvchisi psixologiyasi. –T.: «O’zbekiston» 1999.
10. Davletshin M.G., Jalilova S.X. Oliy maktabda ta’lim jarayoni samaradorligining psixologik tomonlari. –T.: 2001.
11. Davo’dov V.V. Vido’ obobheniya v obuchenii. –M.: 1972. – 424 s.
12. Zimnyaya I.A. Pedagogicheskaya psixologiya: Ucheb.posobie dlya studentov vo’ssh.ped.ucheb.zavedeniy –Rostov-nG’D.: 1997. – 476 s.
13. Nishonova Z.T. Oliy maktab psixologiyasi. –T.: 2003.
14. Nemov R.S. Psixologiya. Kniga 2. Psixologiya obrazovaniya. –M.: 1998. –608 s.
15. Talizo’na N.F. Upravlenie protsessom usvoeniya znaniy. –M.: 1984. –344 s.
16. Talo’zina N.F. Pedagogicheskaya psixologiya. Uchebn.posobie. –M.: 1998. –288 s.
17. Elkonin D.B. Psixicheskoe razvitie v detskix vozrastax. –M.: Voronej. 1995. –416 s.
18. Esaulov A.F. Aktivizatsiya uchebno-poznavatelnoy deyatel’nosti studentov. –M.: 1982. –223 s.
19. Andreeva G.M. Aktualno’e problema’ sotsialnoy psixologii. M. , 1998 - 112 b.
20. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. - Toshkent, - 1994.- 96 b.
21. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. Toshkent, - 1999.- 96 b.
22. Yemelyanov Yu.N. Aktivnoe sotsialno-psixologicheskoe obuchenie. M: 1985 va boshqalar.

23. Andreeva G.M. "Sotsialnaya psixologiya" Uchebnik 2-e izd., dop., pererab. — M.: Izd-vo MGU, 1988—432 b.
24. Asmolov A.G. "Lichnost kak predmet psixologicheskogo issledovaniya. M., Pedagogika, 1984.
25. Akramova F.A. Ijtimoiy psixologiya. T.: TDPU, 2004, 89 b.
26. Kovalev A.G. Kollektiv i sotsialno-psixologicheskie problema' rukovodstva. M.: Politizdat, 1975.—272 b.
27. Metodologiya i metodo' sotsialnoy psixologii. Otv. red. Ye.V. Shoroxova. M.: Nauka, 1977.—248b.
28. Godfrua J. Chto takoe psixologiya: V 2-x t. T.1. Per. s frans. M., Mir, 1992. -496 s.
29. Vedenskaya L.V, Pavlova L.A. Delovaya retorika: uchebnoe posobie dlya vuzov.- M.:IKS "MarT", 2004-512 s.
30. Vospitay svoego lidera, kak naxodit, razvivat i uderjivat v organizatsii talantlivo'x rukovoditeley. g' Per. s angl.-M.: Izdatelskiy dom "Vilyams", 2002.- 416 s
31. Lojkin .G.V. Povyakel N.I Prakticheskaya psixologiya v sistemax "chelovek texnika": Ucheb.posobie.- K.: MAUP, 2003 – 296 s.
32. Godfrua J. Chto takoe psixologiya: V 2-x t. T.1. Per. s frans. M., Mir, 1992. -49
33. Bolotova A.K. Prikladnaya psixologiya: Uchebnik dlya vuzov G' A.K. Bolotova. – M.: Gardariki, 2006. – 382 s.
34. Yenikejev M.I. Obshaya i sotsialnaya psixologiya: Uchebnik dlya vuzov. – M.: Norma, 2005. – 624 s.
35. Karimova V.M. Psixologiya. O'quv qo'llanma. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, "O'AJBNT" markazi, 2002. – 205 b.
36. Karimova V.M., Akramova F.A. Psixologiya. Ma'ruzalar matni. 1-qism. – T.: TDIU, 2005. – 208 b.
37. Kvinn V. Prikladnaya psixologiya. – SPb: Izdatelstvo "Piter", 2000. – 560 s.
38. Mayers D. Sotsialnaya psixologiya G' Perv.s angl. – SPb.: Piter, 1999. – 688 s.
39. Maxmudov I.I. Boshqaruv psixologiyasi: O'quv qo'llanma G' Mas'ul muharrir:
40. A.Xolbekov. – T.: DJQA "Rahbar" markazi; "YUNAKS-PRINT" MChJ, 2006. – 230 b.
41. Prikladnaya sotsialnaya psixologiya G' Pod red. A.N.Suxova i A.A.Derkacha. – M.: Izd-vo "Institut prakticheskoy psixologii"; Voronej: Izd-vo NPO "MODEK", 1998. – 688 s
42. Psixologiya. Uchebnik G' Otv. red. prof. A.A.Krilov. – 2-ye izd., pererab. i dop. – M.: Izd-vo: PROSPEKT (TK Velbi). 2004. – S. 241-243
43. Psixologiya. Uchebnik dlya ekonomicheskix vuzov G' Pod obsh. red. V.N.Drujinina. – SPb.: Piter, 2002. – S. 341-348.

44. Slovar prakticheskogo psixologa G'G' Sost. S.Yu.Golovin. – Minsk: Xarvest, M.: OOO “Izdatelstvo AST”, 2003. – S. 635-721.
45. Sosialnaya psixologiya lichnosti v voprosax i otvetax: Ucheb. posobiye G' Pod red. prof. V.A. Labunskoy. – M.: Gardarika, 1999. – 397 s.
46. Xekxauzen X. Psixologiya motivasii dostijeniya G' Per. s angl. – SPb: Rech, 2001. – 240 s.
47. Chaldini R. Psixologiya vliyaniya. – SPb.: Piter, 2004. – 286 s. Hayitov O.E. Psixologik iqtisod: O'quv qo'llanma G' Professor V.M.Karimova tahriri ostida. – T.: TDIU, 2006. – 130 b.
48. Nemov R.S. Prakticheskaya Psixologiya Poznanie sebya: Vliyanie na lyudey: Posobie dlya uch-sya-M:Gumanit. Izd.Sentr VLADOS, 2003. - 320 s.

Internet tarmog'i bo'yicha veb-saytlar ro'yhati:

1. www.expert.psychology.ru
2. www.psycho.all.ru
3. www.psychology.net.ru

BARKAMOL ShAXSNI ShAKLLANTIRISH MODELI

**MAQSAD VA
VAZIFALARI**

IJTIMOIIY BUYuRTMA	TADBIRLAR	NATIJA
Bosh maqsad O'zbekiston Respublikasida talaba yoshlarni ma'navii va ahloqiy yangilash orqali fuqarolik demokratik jamiyatni qurishga tayyorlashdan iborat. Asosiy maqsad- Barkamol ma'naviyatli shaxsni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya tizimining ilmiy-nazariy asoslarini	1. Ishlab chikarilgan ta'limni gumanitarlashtirish, insonparvarlashtirish 2. Ta'lim va tarbiyaning uzviyligini ta'minlash 3. Auditoriyada dars jarayonida, auditoriyadan tashqari o'kuv yurtida va o'kuv yurtidan tashqarida, mahallada yoshlar ijtimoiy harakatida. an'anaviy tadbirlar (to'y.aza va radio, televidenie va boshka ommaviy axborot vositalarndagi ta'limning uyg'unligini ta'miilash. 4. Yoshlar ma'naviyatini bosqichma-bosqich shakllantirish (maktabgacha tarbiya, maktab, o'rta maxsus, kasb-huiar ta'limi. Bakalavr,magistr	Xar tomonlama rivojlangan, barkamol shaxs 1. Intellektuellik (bil imdonlik) 2. Vatanparvarlik 3. Xulk, odob 4. Xuqukiy madaniyat 5. Estetik (nafosat) tarbiyalanganlik 6. Ekologik madaniyat 7. Intseormatsion madaniyat 8. Oila ma'naviyati 9. Mahalla ma'naviyati 10. Mustaqil fikr-lovchi ijodkor shaxs 11. Tadbirkorlik ko'nikmalari 12. Akademik


yaratish, uni metodik jihatdan ta'minlash x.k. hamda ular asosida muayyan tadbirlarni o'tkazish		harakatchanlik (mobilnost)
--	--	-----------------------------------

MA'NAVIY INSON

(tashkil etuvchilar)

Ma'naviy meros	Madanyat	Qadriyatlar
Ma'rifat	Milliy mafkura	Milliy istiqlol g'oyasi

3-chizma



Sport, badiiy o'lkashunoslik, iqtisodiy to'garaklar, klublar	Tozalik postlari	Qizlar qo'mitasi	Iktidorli yoshlar	Homiy tashkilotlar	Tarbiyasi og'ir yoshlar bilan ishlash	Kasbga yo'naltirish	Sog'lom avlod uchun jamgarmasi	Giyohvandlik va OITS (SPID)ga qarshi kurash	Jinoyatchilikni oldini olish
---	------------------	------------------	-------------------	--------------------	--	---------------------	-----------------------------------	--	------------------------------

4-chizma.



Xar tomonlama barkamol shaxs modeli

Shaxsning axlokii sifatlari	Shaxsning intellektual sifatlari	Shaxsning madaniy sifatlari	Shaxsning odoblik sifatlari	Shaxsni tarixiy qadriyatlar asosida shakllantirish	Mahalla shaxsni ma'naviy rivojla ntirish markazi sifatida
-----------------------------------	--	-----------------------------------	-----------------------------------	--	---

Shaxsning irodalik sifatlari
O'qimishli shaxs Shaxs buyurtmachi Intellektual Muxandis-fizik mutaxassisining modeli

Shaxsning tadbirkorlik va ishbilarmonlik sifatlari
Akademik harakatchanlik (mobilnost) Xar tomonlama insonparvar shaxs Barkamol avlod

Shaxsning ahloqiy sifatleri

Insoniylik	Insonparvarlik	Do'stonalik	Baynalminallik	Mehribonlik
Vatan-parvarlik	G'oyaviy sodiqlik	Jamiyat extiyojlarini shaxsiy extiyojlaridan yuqori qo'yish	Andishalilik	Iymonlilik

6-chizma.

Shaxsiing intellektual sifatleri

Kuzatuvchanlik	Mantiqiylik	Ijodkorlik	Taxliliy va umumlashtiruvchi fikir yurita olish	Mantiqiy fikr yurita olish
Asoslanganlik	Bashoratlilik	Tanqiydiylik	Xabardorlik	

Shaxsning xuquqiy madaniyati

O'zR Konstitutsiyasini to'raligicha o'zlashtirganlik	Davlat ramzlari: madhiya bayroq, gerb, Prezidentlik, Prezident, tub belgilari, chegarasi, xududiy yaxlitlilik	Fuqarolarning xuquqlari va burchlari	Mexnat konunchiligini bilishi	O'zbekisto n Respublika si davlat hokimiyati tarkibi
Tadbirkorlik faoliyati va unng himoyalanganligi	kabilarni bilishi	Prokuratura va sud organlari faoliyati to'g'risidagi bilnmlar	Davlat va xususiy mulkchilik to'g'risidagi bilimlar	Davlat va nodavlat muassasalar i
Davlat va nodavlat	Tijorat va notijorat faoliyati	Demokratik davlat demokratik jamiyat	Davlat va mazhablar	

Shaxsning estetik sifatlari

Tarbiyalanganlik

Xushbichimlik

Xushfe'llik

Noziktablilik

Nafosatlilik

Tashqi va
ichki
madaniyat

Saranjom-
sarishtalik

Didlilik